

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI
TARJIMASHUNOSLIK KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “Panchatantra” asari tarjimalarining qiyosiy
tahlili**

Bajardi: “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”

Ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Nosirova Komola Sadridin qizi _____

Ilmiy rahbar: “Tarjimashunoslik”

kafedrasi o‘qituvchisi

Xadjayeva N.B. _____

Ilmiy maslahatchi: “Tarjimashunoslik”

kafedrasi dotsenti

To‘xtamirzayev M.Y. _____

Toshkent – 2019

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi”

Fakulteti dekani

f.f.d., dots. Q.Sh. Omonov

“ _____ ” _____ 20__ yil

“Tarjimashunoslik”

Kafedrasi mudiri

PhD X.X. Hamidov

“ _____ ” _____ 20__ yil

Mundarija:

KIRISH	4
I BOB. “Panchatantra” asari dunyo tillarida	10-37
1.1. “Panchatantra” yohud “Kalilla va Dimna”	10
1.2. Asarda bevosita va bilvosita tarjima masalalari	18
1.3. Asarda bilvosita tarjimaning afzallik va kamchiliklari	26
II BOB. “Panchatantra” asarida uslub masalasi	38-52
2.1. Asarda tarjimon va muallif uslubi	38
2.2. “Panchatantra yohud besh muqaddas kitob” va “Kalilla va Dimna”	44
XULOSA	53
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda ilm-fanga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa xorij tillarini o'rganish uchun keng ko'lamli imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi barcha mamlakatlar bilan do'stona shartnomalar imzolamoqda. Bu ham yoshlar kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Aynan shuning uchun ham biz yoshlar chet mamlakatlarda o'z malakamizni oshirish imkoniyatiga egamiz. Bundan tashqari chet davlatlarda o'qish imkonini beruvchi turli grandlar ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 30-sentabr oyida Hindiston Respublikasi Prezidenti Ram Nath Kovidning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Hindiston Respublikasiga tashrif buyurgan. O'zbekiston delegatsiyasi aeroportda tantanali ravishda kutib olingan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev avval Agra shahriga tashrif buyurdiva jahonga mashhur Toj Mahal obodasini borib ko'radi. Davlat tashrifi doirasida asosiy tadbirlar 1-oktyabr kuni Nyu-Dehli shahrida bo'lib o'tadi. Tashrif davomida Hindiston Respublikasi Prezidenti Ram Nath Kovind, Bosh vazir Narendra Modi va Hindistonning boshqa rahbarlari bilan qator uchrashuv va muzokaralar o'tkazildi¹.

Bu esa Respublikamiz Hindiston Respublikasi bilan do'stona aloqada ekanligidan dalolat beradi va buning natijasida biz yoshlar Hindiston Respublikasida tahsil olishimiz uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari maktablarda ham xorij tillarini o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda 1-prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak"² deb aytgan so'zi fikrimiz dalili bo'la oladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham tarjima sohasi haqida

¹<https://www.trt.net>

²Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston san'ati nashriyoti, 1998. – B.-11

alohida to'xtalib o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek til va adabiyoti universitetiga 2017-yilning 23-dekabr oyidagi tashrifida o'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish, o'zbek adabiyoti namunalarini chet tillarga tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi kerakligi haqida ta'kidlagan. Bundan tashqari yurtboshimizning quyidagi gaplari ilm sohasi vakillariga befarq emasligidan dalolat beradi: "Mening dasturimda intellektual soha ahlining mehnatini qadrlash, ularning izlanishlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratib berish masalasi yetakchi o'rin egallaydi"³. Tarjima sohasi bo'yicha badiiy tarjima anchagina zahmatli ish bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishga bo'lgan talab va taklif ortib bormoqda. Buni zamonning o'zi ham talab etmoqda.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi"⁴. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'priq deb qaraladi.

Tarjima uchun esa turli tillarni bilish kerak. Chet tillarni bilish boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqaga yo'l ochadi, ularning tarixi, madaniyati, urf-odatları, dini, milliy o'ziga xosliklarini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bugina emas. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish dunyoga chiqish eshigini ochadi⁵.

Tarjima – bir tilda yaratilgan asarning o'zga bir xalq ma'naviy ehtiyojiga xizmat qildiradigan, undan badiiy zavq olish uchun imkoniyat yaratib beradigan

³ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.- B. 446

⁴Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. –B.18

⁵OchilovE. Tarjima nazariyasi (O'quvqo'llanma). – Toshkent.2014. –B.4

kommunikativ vositadir. Tarjima matni ham asliyat matniga teng bo‘lib, u bilan bir yaxlitlik tasavvurini uyg‘otishi lozim⁶.

Tarjima murakkab jarayonlardan biri bo‘lib, u tarjimondan katta mashaqqatni talab qiladi. Tarjimon nafaqat ikki tilni, balki, u o‘girayotgan asar tilida so‘zlashuvchi millatning madaniyatini, an‘analarini, tarixini hamda adbiyoti bilan bir qatorda o‘sha xalqning mentalitetini ham bilmog‘i kerak bo‘ladi. Tarjimon tilning bu kabi qirralari haqida ma‘lumotga ega bo‘lmay turib tarjimaga qo‘l urolmaydi. Shunga qaramay tarjimaga qo‘l urguday bo‘lsa, tarjimada milliy xos so‘zlar bilan aloqador muammolar kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari tarjimondan ijodkorlik ham talab etiladi. Tarjimon huddi ijodkor kabi fikrlaydi va ijod qiladi. U asar muallifi o‘rniga o‘zini qo‘ygan holda u kabi fikrlaydi va tarjima asarini yaratadi. Tarjimon oldiga qo‘yiladigan talablar ham kattadir. Kitobxon tarjima matnini o‘qigan vaqtida ham, asl nusxadagi asarni o‘qigan vaqtida ham birdek taassurotga ega bo‘lishi kerak. Bu esa tarjimon mahoratiga bog‘liq bo‘ladi, Bundan tashqari tarjimonga qo‘yiladigan talablardan yana biri filologik bilimlarning yuqori darajada bo‘lishi. U o‘z ona tilining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda uning grammatikasini teran tushunishi: adabiyot nazariyasi, badiiy ifoda usullarini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi tarjima matnining talab darajasida shakllanishiga xizmat qiladi. Shundagina tarjimon til me‘yorlarini buzmasdan, asliyat matni shakliga putur yetkazmasdan uning mazmunini to‘liq qayta yaratishi, muallif maqsadi va g‘oyasini aniq yetkazishi mumkin. Binobarin, tarjima san‘at hisoblanadi. U nafaqat bilim, shu bilan birga katta mehnat va jonkuyarlikni talab etadi.

“Til o‘rganish va tarjima – bularning har ikkalasi ham bir maqsadga yo‘naltirilgan ikki vositadir. Ayni vaqtda, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Tarjima qilish asl nusxa yozilgan tilni bilishni taqozo qiladi. Lekin chet tilni bilish tarjima qilishning faqat muhim shartidir, xolos. Tarjimon, bundan tashqari, ona tilini ham mukammal egallagan bo‘lishi, unda o‘z fikrini erkin bayon eta olishi lozim. Agar gap badiiy tarjima haqida borsa, bunda tarjimon obrazli tafakkur qobi-

⁶Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B. 16

liyatiga ham ega bo'lishi kerak. Nihoyat, bulardan tashqari, o'girilayotgan asar predmeti, muallifning ijodiy biografiyasini ham bilishi darkor⁷.

Bundan tashqari tarjima turli noyob asarlarning dunyo bo'ylab sayr qilishida yetakchilik qiladi. Tarjima asarlari orqali insonlar turli millatlarning qadriyatlarini, urf-odatlarini, tarixi va boshqa qirralari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa tarjima sohasini yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Qadimgi Sharq adabiyoti insonni yashashga o'rgatadigan, olijanoblik, insoniylik, yaxshi xulqlarni targ'ib qiladigan qutlug' kitoblarga boy. Ayniqsa, ko'hna Hindiston adabiyoti kishiga qutlug' bilimlar beruvchi kitoblarning tuganmas xazinalari bilan mashhur⁸.

“Panchatantra” – insonni yashashga o'rgatadigan mana shunday qutlug' kitoblardan hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham, Bitiruv malakaviy ishining mavzusi qilib, hind xalqining durdona asarlaridan biri “Panchatantra” asarining dunyo tillariga qilingan tarjimalari tahlilini olindi. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, ushbu asar bilvosita tarjima qilingan asarlardan biri bo'lib, u asliyatdan anchagina farq qiladi. Bundan tashqari bilvosita tarjima oqibatida bir asardan ikki alohida bir biridan farq qiluvchi asar maydonga kelgan.

Ishning maqsad va vazifalari. “Panchatantra” asari tarjimalarini qiyosiy tahlil qilish orqali undagi kamchiliklar va yutuqlarni o'rganib chiqish. Bilvosita tarjima bo'lgan asarlar qanchalik asliyatdan farq qilishini “Panchatantra” asari misolida ko'rib chiqish.

Maqsadlarni amalga oshirish yo'lida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- “Panchatantra” asari tarjimalarini ko'rib chiqish;
- “Kalilla va Dimna” asarining maydonga kelishi haqida;
- “Panchatantra” asari tarjimalarini asliyat bilan solishtirish;
- “Panchatantra” asari tarjimalarini o'zaro qiyoslash;
- Bilvosita tarjimaning kamchilik va avzalliklarini o'rganish;
- Bilvosita tarjimada uslub masalasi.

⁷Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B.38-39

⁸G'ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.3

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. “Panchatantra” asari aniq bir muallifga ega emas. Uning birinchi nusxalari eramizning III-IV asrlarida maydonga kelgan. “Panchatantra” – besh kitob demakdir, u Sharq prozasining ilk go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi. “Panchatantra”ning ilk nusxalari topilmagan. Lekin uning keying zamonlarda turli yerlarda yaratilgan turli harakterdagi nusxalari mavjud. Bular ichida rohib Purnabhadra 1919-yilda barcha nusxalar asosida tuzgan jayna nusxasi eng mukammal hisoblanadi. Shu mukammal nusxa asosida 1972-yilda Moskvada “Panchatantra” rus tilida A.Sirkinning sanskritdan qilingan tarjimasida bosildi. “Panchatantra” VI asrda suroniy tiliga tarjima qilingan. Shundan so‘ng arab va pahlaviy tillariga o‘girilgan. Shu tariqa u tillardan tillarga, mamlakatlardan mamlakatlarga osha, o‘zining uzoq sharaflari yo‘llarini bosib o‘tgan. “Panchatantra”ning arabchaga ilk tarjimasi “Kalilla va Dimna” deb atalgan. Vaqt o‘tgan sari, tillardan tillarga ko‘chgan sari “Panchatantra” asarining shakli ham, mazmuni ham o‘zgarib, uning yangidan yangi variantlari yaratilavergan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti “Panchatantra” asari bo‘lib, tadqiqotning predmeti esa uning boshqa tillarga bilvosita tarjima qilingan nusxalarini solishtirib qiyosiy tahlil qilishdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. “Panchatantra” asarining ko‘plab tarjimalari bilvosita tarjima qilingan. Shuni ham aytish kerak-ki, o‘zbek tiliga o‘girilgan barcha tarjimalar bilvosita tarjima qilingan. Hozirgi kunga qadar asliyatdan o‘girilgan tarjima mavjud emas. Bu tarjimashunoslik soxasidagi yechilmagan muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur malakaviy ishning manbasi sifatida “पंचतंत्र”, Ibrohim G‘ofurovning o‘zbekcha tarjimasi “Panchatantrayohud besh muqaddas kitob” asari, A.Sirkinning “Панчатантра” asari, Suyuma G‘aniyevaning “Kalilla va Dimna” asari kabilardan foydalanildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot “Panchatantra” asarini mukammalroq o‘rganishga va bilvosita tarjimaning kamchiliklari va avzalliklarini

o‘rganishga yordam beradi. Bundan tashqari hind adabiyotiga qiziquvchi yoshlarga ilmiy izlanishlarida uslub, oqim, yo‘nalishlar haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qismni tashkil etuvchi ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Umumiy hajmi 57 bet.

I BOB. PANCHATANTRA ASARI DUNYO TILLARIDA

1.1. “Panchatantra” yohud “Kalilla va Dimna”

“Panchatantra” – koʻhna Hindistonning eng qadimiy va durdona asarlaridan boʻlib, bu nodir qoʻllanma insoniy tuygʻular tarannumiga bagʻishlanadi. Kitob insonni yashashga oʻrgatadi, shuningdek, oliyjanoblik, yaxshi xulqlarni targʻib qiladi.

“Panchatantraning” badiiy oʻziga xosliklari tamomila oʻzgacha bir goʻzallikdir. Bunda uslub va usullar ham tamomila oʻzgacha. Unda hikoyatlardan hikoyatlar kelib chiqadi. Har bir hikoyat goʻzal ba teran hikmatga ega boʻlgan bayt bilan tugallanadi.

“Panchatantra” qadimgi hind massalaridan biri hisoblanadi. “Masal — majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha boʻlib, nasriy yoki sheʼriy shakldayoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iboratdir. Bular ramziy-majoziy maʼnoda qoʻlanilib, insonlar feʼl-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u toʻliq maʼnoda tarbiyaviy maqsadga yoʻnaltiriladi”⁹.

Hind masallari anʼanaga koʻra, axloq yoki odob, pand-nasixat masalalariga bagʻishlangan. Masallarning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning shakllanishida tashqi taʼsir boʻlmagan. Ular sof milliy anʼana, milliy til asosida oʻz holicha shakllangan¹⁰.

“Panchatantra” – “besh asosiy holat” yoki “besh kitob” deb tarjima qilinadi. “Panchatantra” masal janriga kiruvchi asardir, chunki undagi barcha obrazlar hayvon boʻlib, hayvonlar obrazi orqali insonning hayotiy muammolari pand-nasihat tarzida yoritib berilgan.

Hind adabiy anʼanasi bu asarni “siyosat darsi kitobi” deb ham ataydi. Bu haqda hatto rivoyat ham mavjud. Unga koʻra aqlli va donishmand Vishnusharman ahmoq shahzodalarni hayot saboqlariga, siyosatga, davlatni va xalqni boshqarish

⁹Ahmedov S., Qosimov B., Qoʻchqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2011. – B.107-108

¹⁰ Muhibova U. Hind adabiyoti. – Toshkent, 2008 – B.55

siyosatiga o‘rgatish maqsadida ushbu masalni yozgan ekan. Bu asar ham an’anaviy qoliplash usulida yozilgan¹¹.

Asardagi besh qismning, ya’ni besh kitobning nomlanishi quyidagicha:

Birinchi kitob – “**मित्रभेद**” (Do‘stlarning judo bo‘lishi). Bu qismda muallif asosan sher va buqaning do‘stligi va bu do‘stlikning ayyor tulki tufayli buzilishi haqida hikoya qiladi.

Ikkinchi kitob – “**मित्र सम्प्राप्ति**” (Do‘stlar orttirish). Bu kitobdagi hikoya qarg‘a, sichqon, toshbaqa va kabutar kabi kuchsiz hayvonlarning ahillik, do‘stlik orqali qo‘lga kiritgan yutuqlari, dushmani qanday qilib yengani hikoya qilinadi. Muallif bu orqali do‘stlik kuchda emas ahillikda ekanligini ko‘rsatishni bosh maqsad qilib qo‘ygan.

Uchinchi kitob – “**काकोलूकीय**” (Qarg‘alar va boyqushlar) den nomlangan. Ushbu qismda hayvonlar obrazi orqali urushni qanday olib boorish va urushda qanday g‘alaba qozonish haqida hikoya qilinadi.

To‘rtinchi kitob – “**लब्धप्रणाश**” (Nasibani yo‘qotish). Ushbu hikoya ham hayvonlar obrazidan foydalanilgan. Unda delfin obrazidagi qahramonning o‘z do‘sti maymunga qilgan sotqinligi haqida so‘z boradi. Ammo, maymun o‘z do‘sti delfinning yomon niyatini sezib qoladi va omon qolish uchun unga turli hikoyalar so‘zlab berishni boshlaydi. Hikoyalar tufayli maymun omon qoladi.

Beshinchi kitob – “**अपरीक्षित कारक**” (Nodon qiliqlar) deya nomlangan. Bu kitob oldingilariga qaraganda kompozitsion qurilishi jihatidan ancha farq qiladi. Bu qismda qoliplash usuli, ya’ni hikoya ichida hikoya usulidan keng foydalanilgan.

Tahminlarga ko‘ra “Panchatantra” milodning III-IV asrlarida dunyoga kelgan. Asarning muallifi qandaydir Brahman Vishnusharman deb tahmin qilinadi. “Panchatantra” qadimgi hind yozuvi Sanskrit tilida yozilgan asardir. Uning ilk nusxalari esa hozirga kunga qadar topilmagan. Lekin asarning keying davrlarda

¹¹Muhibova U. Hind adabiyoti. – Toshkent, 2008. – B.57

Hindistonning turli qismlarida yaratilgan nusxalari mavjud. Janubiy Hindistonda esa jayn monaxlari yaratgan nusxalar mavjud. Bular ichida rohib Purnabhadra 1919-yilda barcha nusxalar asosida tuzgan jayn nusxasi eng mukammal hisoblanadi. Keyingi davr nusxalaridan Kashmirda yaratilgan “Tantrakxaika” nomli variant mavjud. Bu variantlar milodning birinchi ming yilligining ikkinchi yarmida yaratilgan deb tahmin qilinadi.

“Panchatantra” VI asrda suroniy tiliga tarjima qilingan. Shundan soʻng arab va pahlaviy tillariga oʻgirilgan. Shu tariqa u tillardan tillarga, mamlakatlardan mamlakatlarga osha, oʻzining uzoq sharafli yoʻllarini bosib oʻtgan. “Panchatantra”ning arabchaga ilk tarjimasi “Kalilla va Dimna” deb atalgan. Vaqt oʻtgan sari, tillardan tillarga koʻchgan sari “Panchatantra”ning shakli ham, mazmuni ham oʻzgarib, uning yangidan yangi variantlari yaratilavergan. Har bir tarjimon unga oʻzidan koʻp naesalar qoʻshgan. Shu tariqa asl nusxalar bilan boshqa tillarga turli davrlarda qilingan tarjimalar oʻrtasida juda katta farq yuzaga kelgan. 1972-yilda rus hindshunos olimi A. Sirkin tomonidan “Panchatantra” rus tiliga oʻgirilgan. Oʻzbek adabiyotiga “Panchatantra” birinchi bor oʻzining arabcha varianti “Kalilla va Dimna” asarining tarjimasi orqali kirib kelgan. Panchatantraning oʻzi esa birinchi bor 1993-yilda Ibrohim Gʻofurov tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Uning mukammal variant esa 2013-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan va kitobxonlarga taqdim etilgan.

“Panchatantra” asari taʼsiri ostida hind adabiyotida juda koʻp boshqa asarlar hikoyalar, masallar, ertaklar va pritchalar dunyoga kelgan. Jumladan, “Hitopodesha”, yaʼni “Ibratli hikoyatlar” “Panchatantra” tarkibidagi hikoyatlar asosida yuzaga kelgan. Bu asar eramizning X-XIII asrlari orasida yaratilgan deb tahmin qilinadi. “Panchatantra” masalining dovrugʻi oʻz vaqtida Eron va Arab mamlakatlariga ham yoyilib ketgan. Rivoyatlarda aytilishicha, qadimgi Eron shohlaridan biri oʻzining vazirini Hindistonga aynan mana shu asarning asl nusxasini oʻgʻirlab kelish uchun maxsus yuborgan ekan va u ham bu ishning uddasidan chiqqan. U “Panchatantra”ning bir nusxasini olib kelib, uni fors tiliga

o'giran. Keyinchalik esa "Panchatantra" asari fors tilidan arab tiliga ham tarjima qilingan.

Shuni ham aytib o'tish lozim-ki, "Panchatantra" asariga bilvosita tarjima oqibatida har bir tarjimon asarni yaratishda o'zidan ko'p narsalar qo'shgan. Shu tariqa asl nusxalar bilan boshqa tillarga turli davrlarda qilingan tarjimalar o'rtasida juda katta tafovutlar yuzaga kelgan.

Tarjimalar jarayonida esa "Panchatantra"ning nafaqat mazmuni balki uning nomi ham o'zgarib boravergan. Har bir tarjimon asarni tarjima qilish jarayonida tarjimaga erkin yondashib unga o'z davriga qarab turli qoshimchalar qo'shganlar. Buning natijasida asar mutloq asliyatdan farq qiluvchi yangi asarga aylangan. Jumladan, arab adabiyotidagi mashhur masal "Kalilla va Dimna" "Panchatantra"ning arabcha variant emas, balki mustaqil bir asarga aylangan. Bundan tashqari "Kalilla va Dimna" ham bilvosita tarjima bo'lgan asarlar sarasidan joy egallagan. U arab tiliga o'girilgandan so'ng uni ham bir necha bor turli davrlarda, turli tarjimonlar, turli tillarga bilvosita tarjima qilganlar. "Kalilla va Dimna"ning o'zbek tilida ham bir necha tarjimalari mavjud¹².

"Kalilla va Dimna" rivoyatlarga ko'ra, aslida qadim zamonlarda hind faylasuf olimlari tomonidan yozilgan. "Kalilla va Dimna" Eron shohi Anushiravon davrida Hindistondan saroy fuzalolaridan bo'lgan Barzuya hokim tomonidan yashirincha Eronga keltirib, pahlaviy tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima yo'qolib ketgan, lekin pahlaviy tilidan suriya tiliga o'girilgan tarjima adabiyotga nodir yodgorlik sifatida qo'shildi.

"Kalilla va Dimna" asarining butun dunyo bo'ylab tarqalishiga Abdulla ibn-al Muqaffa tomonidan fors tilidan arab tiliga qilingan tarjimasi sababchi bo'lgan. Eski sharq an'anasiga ko'ra, Abdulla ibn-al Muqaffa asarni tarjima etish asnosida faqat muqaddima yozibgina qolmay, asarning asosiy matniga ham bir muncha o'zgarishlar kiritgan. Masalan, u "Dimna ishining tekshirilishi" faslini o'zidan qo'shgan.

¹²Muhibova U. Hind adabiyoti. – Toshkent, 2008 – B.58

X-XI asrlarda “Kalilla va Dimna” Abdulla ibn-al Muqaffa tarjimasida yana suriya tiliga, XI asrning oxirlarida esa yunon tiliga, XII asrda yunonchadan slavyan tiliga, XIII asrning o‘rtalarida yahudiy tiliga, bir necha o‘n yillardan keyin esa lotin tiliga tarjima qilingan. Ana shu oxirgi tarjima fransuz, italyan, nemis va boshqa g‘arb tillariga qilingan tarjimalarga asos bo‘lib xizmat qilgan.

1889-yilda mashhur rus sharqshunoslari M. Attayev va M. Ryabinin “Kalilla va Dimna”ni rus tiliga tarjima qildilar. Rus olimi I.Yu.Krachkovskiy o‘zining yosh iste’dodli shogirdi I.P.Kuzminga “Kalilla va Dimna”ni arabchadan rus tiliga tarjima qilishni topshiradi.

T.P.Kuzmin mashhur arabshunos L.Shayho tomonidan 1905-yil Bayrutda nashr qilingan, 1923-yilda esa qaytadan nashr qilinib tuzatilgan variantini asos qilib oladi. T.P.Kuzminning bevaqt vafoti tarjimaning tugallanmay qolishiga sabab bo‘ladi. I.Yu.Krachovskiy uni tugatib, L.Shayhoning matniga moslashtirib qayta ishlab chiqadi. Bu tarjima Ye.E.Bertels so‘z boshisi bilan 1957- yilda Moskvada 2-da’fa nashr etiladi.

Arab va Suriya tillariga qilingan tarjimalardan keyin tojik adabiyotining otasi, mashhur shoir Rudakiy “Kalilla va Dimna”ni fors-tojik tiliga nazm bilan, 1143-1144- yilda esa Nizomiddin Abul Maoliy Nasrulloh nasr bilan tarjima qiladilar.

XVI asrga kelib “Kalilla va Dimna” ni Husayn Boyqoro farmoni bilan Hiroflik shoir Husayn Voiz Koshifiy fors tiliga qaytadan tarjima qiladi, asarga Anvori Suhayliy” deb nom beradi va uni Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlaydi.

Nihoyat Hindistonda boburiylar davrida Akbarshohning vaziri Abul Fazl bin Muborakshoh “Anvori Suhayli”ni qaytadan ishlaydi, uning tili uslubini bir muncha soddalashtiradi va uni “Iyyori donish” deb ataydi. XVI asrda bu noyob yodgorlikning fors tilidan turkey tilga “Humoyunnoma” nomi ostida qilingan tarjimasida keng shuhrat qozonadi.

XIX asr oxirida Qozonda Gabdalgallam Fayzxon o‘g‘li bu asarni asliyatdan tatarchaga tarjima qilib topografiya usulida usulida bosmadan chiqardi.

G‘arbda tarjima qilishda asl matnni mumkin qadar o‘z holicha saqlab qolishga intilish, sharqda esa aksari asl matnni erkin tarjima qilish an’anasi kuchlidir,

sharqda tarjimon asl matni qisman bo'lsa-da, o'z dunyoqarashi va davri talablariga ko'ra talqin etish va shu bilan birga, hatto o'zidan qo'shishga harakat qiladi, bu an'ana tusiga kirgan. Sharq xalqlari tillariga qilingan tarjimalarga yondashishda shuni ko'zda tutmoq lozim. Arab, fors va boshqa sharq tillariga qilingan tarjimalarshundan dalolat beradi. Bu narsa "Kalilla va Dimna"ning o'zbek tiliga qilingan tarjimalariga ham oiddir¹³.

Uning o'zbekcha qilinga birinchi tarjimasi taxminan XIII asrga to'g'ri keladi. Bu tarjimaning yagona nusxasi Londonda "Indiya offis" kutubxonasida saqlanmoqda. Mutarjimi Iftixoriddin Muhammad Bakriy. Ingliz sharqshunosi Ete o'z katalogida mazkur nusxasiga qisqacha sharh beradi.

1131-yillarda "Kalilla va Dimna" Qashqarda Mulla Temur tomonidan "Anvori Suhayliy" asosida tarjima qilinadi va unga "Osori Imomiya" deb nomi beriladi.

1253-yillarda "Kalilla va Dimna" Xivada Xorazm xonlaridan Olloqulixon hukmronligi davrida Mulla Muhammad Niyoz tomonidan forschadan o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Mutarjimning tarjimaga yozgan muqaddimasida asarning O'rta Osiyoda keng tarqalganligi, sevilib o'qilganligi, avval ham bir necha bor tarjima qilinganligi aytiladi.

"Kalilla va Dimna"ning o'zbek tilidagi tarjimalari orasida xalq ichida eng mashhuri 1898-yilda Toshkentda litografiya usulida nashr etilgan Qori Fazlulloh (taxallusi: "Almai") tomonidan bajarilgan tarjimadir. Boshqa sharq tarjimonlari kabi Almai ham sliyatni juda erkin tarjima qiladi, asarga ma'lum darajada o'z hissasini ham qo'shadi. Bu masalaning bir muhim tomonidir. Masalaning ikkinchi tomoni shuki, uning (Almai)ning o'ziga xos tarjima tili va tarjima uslubi mavjuddir.

Almai tarjimasi qisqa muddat – 1901 – 1913-yillar ichida uch marotaba toshbosmada nashr etiladi.

Shuni qayd etmoq lozimki, Almai tarjima qilishda, yuqorida aytganimizdek, asl matnga juda erkin munosabatda bo'lgan. Buning ustiga, uning tili og'ir, forsiy-

¹³G'aniyeva S. Kalilla va Dimna. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.4

arabiy iboralar bilan to'lgan, keng o'quvchilar ommasini aksar ularni tushuna olmaydi.

Eng keyingi tarjima olimi Suyima G'aniyeva qalamiga mansub bo'lib, u Eronda 1938-yilda nashr etilgan Abdulazim G'arib matni va ozarbayjoncha tarjima asosida amalga oshirilgan. Shu bilan birga bu tarjimada Almai matnidan ham foydalanilgan¹⁴.

Tarjimon Suyima G'aniyeva asarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratgan:

1. Mumkin qadar mukammalroq matnni o'quvchilarga taqdim etish. Shu maqsadda, yuqorida aytilganidek, asosan oxirgi ozarbayjon nashrini olib, unga Almaidan ba'zi hikoyatlar qo'shilgan.

2. Asos qilib olingan matnda keraksiz qaytariqlar, haddan ortiq tavsilotlar qisqartirilgan. Shu bilan birga, asliyatdagi tarbiyaga, odobga xilof, g'oyat behayo parchalar yo jumlar ham qisqartirildi. Buni amalga oshirishda ham asarning umumiy xususiyatiga putur yetkazmaslik ko'zda tutildi.

3. Asarning ayrim parchalari erkin tarjima qilinib, ularning muhtasar bayoni berildi, shuning uchun bu kitobga "Kalilla va Dimna"ning akademik nashri emas, ommabop nashri deb qarash kerak.

4. Ma'lumki "Kalilla va Dimna"ning tili va uslubi folklor tili va uslubiga monandir. Shuning uchun ham tarixiy haqiqatga va asliyatga zid ish ko'rmaslik maqsadida shu narsaga rioya qilingan. Shu bilan birga, jonli xalq tilining xususiyatlari va boyliklaridan foydalanishga harakat bo'lgan.

5. Asardagi ba'zi personajlar nomi turli nashrlarda har xildir. S. G'aniyeva tarjimasida Almai nusxasida personajlarga berilgan nomlardan foydalanilgan¹⁵.

Shuni ham aytish kerakki, tarjimon Suyima G'aniyeva asarga ko'plab o'zgartirishlar kiritgan va bizning madaniyatimizga mos kelmaydigan behayo qismlarini olib tashlagan. "Kalilla va Dimna"ni asl Purnabhadra nusxasi bilan

¹⁴G'ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.4

¹⁵G'aniyeva S. Kalilla va Dimna. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.6-7

solishtirsak bir biriga mutlaqo mos kelmaydi. Albatta asar ma'nosi saqlanib qolgan.

“Kalilla va Dimna” uzoq vaqtlardan beri o‘zbek xalqiga ma’lum, uning ko‘p hikmatli so‘zlari, ajoyib hikoyalari har xil yo‘llar bilan xalq orasiga keng yoyilib, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelmoqda. Asarning o‘zbek xalq ijodi va yozma adabiyotiga ham ta’siri katta. Buning izlarini mashhur adabiy yodgorliklarimizda yaqqol ko‘rish mumkin. Asarning XIX asrda o‘zbek tilida, tosh bosmada uch daf’a nashr etilishi adabiy-ma’naviy hayotimizda g‘oyat muhim xodisa bo‘ldi. Natijada, bu shoh asar o‘zbek xalqining ham mulkiga aylanib qoldi.

Ko‘rib guvohi bo‘lyapmizki, bilvosita tarjima oqibatida bir asardan boshqa bir asar vujudga kelyapti. Ammo, asl Purnabhadra nusxasining qurilishi, shakli, badiiy o‘ziga xosliklari tamomila o‘zgacha bir go‘zallikdir. Bunda uslub va usullar ham tamomila o‘zgacha. Unda hikoyatlardan hikoyatlar kelib chiqadi. Har bir hikoyat go‘zal va teran hikmatga ega bo‘lgan bayt bilan boshlanadi va shu bayt bilan tugallanadi. “Panchatantra”ning noma’lum muallifi qoliplashning behad chiroyli usulidan foydalanadi. Hikoyatlar ichida yana hikoyatlar keltiriladi. Hikoyatlarning o‘ziga xos qavatlari hosil bo‘ladi.

“Panchatantra” muqaddas besh kitob – ming yillar osha inson uchun o‘z qimmatini va ahamiyatini zarracha bo‘lsin yo‘qotgan emas. U hamon yangi, hamon dono, hamon kuchda. U fazilatlar kitobidir. Bir so‘z bilan aytganda, to‘g‘ri yashash, to‘g‘ri ish yuritish san’atini o‘rgatishda ko‘mak beruvchi kitoblardan hisoblanadi¹⁶.

“Panchatantra” asari tarjimalari ichida Ibrohim G‘ofurov tarjimasini alohida ajralib turadi. U asliyatga eng yaqin tarjimalardan hisoblanadi. U tarjima jarayonida iloji boricha o‘zgartirish kiritmaslikka harakat qilgan. Asardagi qahramonlar nomini ham huddi asliyatdagidek qoldirishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Ibrohim G‘ofurov tarjima qilgan “Panchatantra yohud besh muqaddas kitob” asarining kitobxon uchun juda ham ko‘p qulay jihatlari mavjud. Asarni o‘qib

¹⁶G‘ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.4

bo'lganimizdan so'ng asardagi tushunarsiz bo'lgan so'zlar haqida izohlar keltirilgan. Misol uchun quyidagilarni ko'raylik:

Um – duo oldidan aytiladigan so'z

Sarasvati – ilm-fan, notiqlik ilohasi

Vishnusharman – “Panchatantra” asarining afsonaviy tuzuvchisi

Brahman – oily tabaqa kohinlarga mansub zot

Shakra – “Qudratli” – jangchi iloh Indraning nomlaridan biri

Xara – “Eltuvchi” – vayron etuchi iloh Shivaning nomi. Afsonalarga ko'ra

*Shiva ho'kizda yurgan*¹⁷ va shu kabi ko'plab so'zlarning izohi mavjud.

Buning qulayligi shundaki, bilamiz har kim ham hind adabiyoti, uning masallari, eposlari, ilohiy hudolari haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Bu esa asarning tushunarsiz joylarini mukammalroq tushunishga yordam beradi. A.Sirkin tomonidan rus tiliga qilingan tarjimada ham kitobxonga tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohi snoskalar yordamida berilgan.

1.2. Asarda bevosita va bilvosita tarjima masalalari

Bevosita va Bilvosita tarjima haqida so'z boshlashdan avval tarjima tushunchasiga to'xtalib o'taylik.

Tarjima tushunchasining mazmun-mundariyasi nihoyatda keng: bir tildan ikkinchisiga she'riy, nasriy, dramatik asarlar, publisistik materiallar, fanning turli sohalariga oid ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, diplomatiya hujjatlari, ish qog'ozlari, siyosat arboblarning maqola va ma'ruzalari, notiqlarning nutqlari, ommaviy axborot vositalari xabarlari, ilmiy anjumanlardagi chiqishlar, turli tillarda so'zlashuvchi va bir-birlarini tushunish uchun og'zaki vositachi tilmochlarning yordamiga muhtoj bo'lgan kishilarning o'zaro muloqotlari, kinofilm va boshqalar tarjima qilinadi¹⁸.

Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir

¹⁷G'ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.328

¹⁸Федоров А.В. Основы общей теории перевода. Москва: Высшая школа, 1983. – С. 9.

ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatik xujjatlar, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, bir tildan ikkinchi tilga kinofilmlar o'g'iriladi.

Tarjima – murakkab jarayon va ma'suliyatli ishdir. Suniy intellekt texnologiyalariga asoslangan avtomatik tarjima tizimlari paydo bo'lib borishiga qaramay tarjima har doim ijodiy ish bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. Agar kishi tarjima haqidagi zaruriy ma'lumotlarning loaqal minimumidan boxabar bo'lsa, tarjima oldida turgan vazifa yechimini yengillatishi mumkin, zero ushbu minimum tarjimonga vazifani to'liq anglab yetish, tarjima qila olishiga doir real qobiliyatini to'g'ri belgilash imkoniyatini beradi. Buning uchun professional tarjimonlarda shakllangan ko'nikma va usullarni o'zlashtirish, shuningdek, tarjima byurolari xizmatlaridan unumli foydalanish darkor. Materialni bayon etish uslubi, yo'sini, shakli va tarzi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tarjimaning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o'z tilida asliymonand lisoniy vositalar tanlab ifoda etishidadir”¹⁹.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar, bir tildan boshqasiga o'g'irilayotgan har qanday tarjima uchun u mumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi - asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o'sha asar matni (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish - muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan matnni boshqa til vositalari, imkoniyatlari bilan aniq va to'la qayta ifodalash demakdir. Tarjima-qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, har-xil "adaptatsiya"lardan o'zining xuddi ana shu aniqligi va to'laligi bilan farq qiladi.

Tarjimaning xillari:

¹⁹Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Тошкент: 2005 –В.68

1. Bir tildan ikkinchisiga - qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tilga tarjima qilish.

2. Adabiy tildan - o‘sha tilning o‘zining biron shevasiga va biron shevadan - adabiy tilga yoxud bir tilning shevasidan boshqa tilga tarjima qilish.

3. Qadimiy davr tilidan o‘sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish.

Masalan, qadimgi ingliz tilidan -hozirgi ingliz tiliga, yoki o‘zbek tilidan - hozirgi o‘zbek tiliga kabi.

Asl nusxada ifodalangan fikr bo‘lak tilda xam xuddi aslidagiday to‘la, aniq va ta’sirchan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, tarjima o‘sha asar o‘girilgan tilning nazariy va amaliy me’yorlariga muvofiq bo‘lishi darkor.

Tarjimonning asl nusxaga sub’ektiv, xolis bo‘lmagan munosabati asl nusxaga beixtiyor, o‘zgacha ma’no berib qo‘yishi, yoki bo‘lmasa uni ko‘rib bilib turib siyqalashtirishi mumkin. Bularning hammasi asarga nomaqbul, ya’ni aslida bo‘lmagan mazmun bagishlanishiga, asl nusxadagi so‘zlarga kontekst taqozosi bilan anglashilgan ob’ektiv mazmun o‘rniga o‘zgacha ma’no berib yuborishiga olib keladi²⁰.

Albatta, tarjimaning xillari ko‘p:

- 1) uzoq va yaqin tillardan;
- 2) adabiy tildan uning biror shevasiga va biror shevadan adabiy tilga yoki bir tilning shevasidan boshqa adabiy tilga;
- 3) qadimgi davr tilidan uning zamonaviy holatiga (tabdil) tarjima qilinadi²¹.

Tarjima amaliyoti asliyatni boshqa tilda adekvat tarzda qayta yaratish uchun talab qilinadigan muvofiq ifoda vositalarini izlab topish va tarjima jarayonida tug‘iladigan muayyan muammolarni hal qilish uchun zarur andozalar, qoidalar, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi²².

²⁰Федеров А.В. Остовы общей теории перевода (Лингвистический очерк). Издание 3-е, Москва: Высшая школа, 1968, - С. 155-157

²¹Федоров А.В. Основы общей теории перевода. Москва: Высшая школа, 1983. – С.9

²²Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B.149–157

Tarjima:

- xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik o‘rnatilishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi;
- madaniyat, san’at va adabiyotlarning bir-biriga ta’siri;
- tillarning boyishida muhim rol o‘ynaydi²³.

Badiy tarjima xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni shakllantirish va mustahkamlashda bir xalqning madaniy boyligi, hayoti, turmush tarzi va manaviy yutuqlarini boshqa xalqlarga tanishtirishda muhim o‘ringa ega. Tarjima tufayli o‘zbek o‘quvchilari rus va chet el yozuvchilarining asarlari bilan o‘z ona tilida tanishishni davom ettirmoqdalar. Rus mutaxassislarining ulkan tarjima tajribasi o‘zbek tarjimachiligi uchun maktab vazifasini bajargan. Bundan tashqari rus tili jahon adabiyotini o‘zbek tiliga tarjima qilishda doimiy vositachi bo‘lib kelgan. Chet tili mutaxassislarining yetishmasligi, yetarli tarjima tajribasining yo‘qligi va shunga o‘xshash boshqa omillar vositali tarjimaga bo‘lgan talabni kuchaytirdi, bu esa o‘z navbatida o‘zbek adabiyotida chet el asarlarining ko‘payishiga olib keldi.

Tarjimashunoslikda tarjimaning ikki turi mavjud, ya’ni bevosita va bilvosita tarjima. Ma’lumki, bevosita tarjima deganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliyat tilidan tarjima qilish, bilvosita tarjima deganda vositachi til orqali o‘girish ko‘zda tutiladi²⁴.

Bevosita tarjima bu – to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliy matn bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan tarjima. Bevosita tarjima jarayonida mutarjimning asliyat tilini bilguvchi, zullisonayn bo‘lishi talab qilinadi. Bu haqda adabiyotda ko‘p gapirilgan. N.A.Dobrolyubovning “Eneida” haqidagi maqolasini eslaylik. Unda buyuk tanqidchi tarjima qiluvchi kishi, birinchi navbatda, shoir bo‘lishi kerak, degan edi. Uning badiiy didi yuksak bo‘lishi, ayni asarni yozgan shoirning ichki dunyosini bilmog‘i, uning ijodini to‘liq his qilmog‘i kerak. Bugina emas, klassik asarlarni tarjima qiluvchi kishi olim ham bo‘lishi zarur. U o‘sha xalqning qadimiy turmush sharoitlarini, o‘sha davrlardagi urf-odatlarini, xususan, ularning

²³Ochilov E. Tarjima nazariyasi (O‘quvqo‘llanma). – Toshkent.2014. – B.4

²⁴Ochilov E. Tarjimashunoslikning asosiy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent.2014. – B.161

tilini mukammal bilmog‘i darkor. Har bir so‘zning eng nozik ma‘nolarini , hatto ko‘z ilg‘amas bir ko‘makchining ma‘nosini ham yaxshi bilishi kerak. Xususan, u asarni qaysi tilga tarjima qilayotgan bo‘lsa, o‘sha tilni juda yaxshi bilishi zarur. U zo‘rma-zo‘rakilik bilan tarjima qilmaslik , o‘z tilining butun boyligidan to‘la foydalana olish, bironta ham sun‘iy jumлага, g‘aliz iboraga yo‘l qo‘ymaslik , asarda tasvirlangan fikrni mumkin qadar to‘laroq aks ettirish uchun o‘z tilida to‘g‘ri va chiroyligina emas, balki yengil va erkin yoza bilmog‘i lozim.

Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi bunda to‘liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonga badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin. Tarjima qilinayotgan asar tili va o‘z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiya, shu bilan birga tarix, adabiyot diniy va milliy qarashlar asardagi turli holat va jarayonlar haqida chuqur tasavurga ega bo‘lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiiy butunlik sifatida aks etishi, balki uning tili va uslubini muallif o‘zi tasvirlagandek tassavur qilinishi kerak. Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko‘payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o‘zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo‘qolishiga va ko‘plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o‘ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

Albatta, dunyoda tillar ko‘p bo‘lib, ularning barchasidan bevosita tarjima qilishning iloji yo‘q. Binobarin, bilvosita tarjimaga ehtiyoj saqlanib qolaveradi. Modomiki, bilvosita tarjimasiz ish bitmas ekan, tarjimon vositachi tildagi tarjimalar orasidan eng muvaffaqiyatli nusxani tarjima uchun tanlashi kerak bo‘ladi.

Bilvosita tarjimaning ikki shakli mavjud:

- muayyan asarni uning boshqa tildagi tarjimasini orqali tarjima qilish;
- til bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan taglama asosida o‘g‘irish.

Taglama (podstrochnik, taht ul-lafz) – mutaxassis yoki bilimdon tilshunos tomonidan til bilmaydigan tarjimonlar uchun birtildan ikkinchi tilga aynan, so‘zma-so‘z, jumlama-jumla, satrma-satr (she‘riy tarjima uchun) tayyorlab beriladigan tarjima. Bu tayyor masalliqdan keyin tarjimon osh pishiradi, ya‘ni taglamani qayta ishlab, badiiy tarjima darajasiga ko‘taradi. Bunda taglama vositachi matn sifatida maydonga chiqadi.

Tarjima nazariyasi bilvosita tarjimani, taglamani har qancha rad etmasin, tarjima amaliyoti bu vositalardan voz kecholmaydi: Jahondagi barcha tillardan bevosita tarjima qilishga o‘tilmaguncha bu tajribaga murojaat etilaveradi. Bungacha esa hali ancha bor... Binobarin, arman olimining taglamaga haykal o‘rnatsa arziydi degan fikri hali-beri o‘z kuchida qoladi. “Ammo, umuman olganda, taglama bo‘yicha tarjima qilishning imkoniyatlari cheklangan, gohi vaqtlarda esa bu adabiy hayotni qiyshiq ko‘zguda ko‘rsatishga sabab bo‘ladi. Puxta tayyorlangan taglama matnini tildan-tilga juda aniq ag‘daradi-yu, lekin butun bo‘yoqlar, musiqiylik, lirika, uslub, milliy bezaklar, leksik-frazeologik boylik, kolorit – bularning bariga muallif va original bilan bevosita muloqotda bo‘lgandagina erishish mumkin.

Bilvosita tarjimaning yaqqol ko‘rinib turgan ikki yomon tomoni bor: birinchisi – har qanday asar o‘zi tarjima qilingan til xususiyatlarini ma‘lum darajada o‘ziga singdiradi, tarjima bo‘lgan adabiy muhitga moslashadi; ikkinchisi – vositachi tildan o‘g‘irgan tarjimon muallif qolib, tarjimon talqiniga ergashadi, u sodir etgan xatolarni aynan takrorlaydi. Har qanday tarjima muayyan darajadagi xatolardan xoli bo‘lmasligi haqidagi haqiqatdan kelib chiqsak, uning xatolari salafiniki bilan qo‘shilib, ular ikki baravarga ko‘payadi²⁵.

Boshqa tomondan, butun G‘arbiy Yevropa adabiyoti, shu jumladan, Osiyo va Afrikaning qariyb hamma adabiyoti hamda boshqa mamlakatlar

²⁵Ochilov E. Tarjimashunoslikning asosiy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent.2014. – B.161

yozuvchilarining kitoblari o‘zbek tilida ruscha tarjima orqali paydo bo‘ladi. Bevosita turkchadan, qisman hindcha, urdu, pushtu, arab, fors tillaridan tarjima qilishga urinishlar bo‘lib turibdi. Lekin bu kam... tojik tili, turkiy tillar oilasiga kiruvchi qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, tatar, turkman va boshqa tillardan tarjima qilinadi. Qolgan barcha hollarda vositali tarjimaga ko‘z tikiladi. Bu ahvolda o‘zbek tarjimoni original tilidan mutlaqo ajralib qolgan holda vositali tarjima ortidan ko‘r-ko‘rona ergashib ketaveradi. Yana shunisi ham borki, ruscha tarjimada mavjud bo‘lgan va o‘zbek tiliga ko‘r-ko‘rona ko‘chirilgan barcha xatolar va yanglishuvlarga tarjimon, turgan gap, javob bermaydi. Ruscha tarjima qanday bo‘lsa, o‘zbekchasi ham (yangi nuqsonlar bilan birmuncha “boyigan” holda) xuddi shunday bo‘lib chiqaveradi”²⁶.

Qolaversa, ko‘p hollarda bilvosita tarjimaning bevosita tarjimadan ustunlik qilishi ham bor gap.

Bilvosita tarjimaning yaqqol ko‘rinib turgan ikki yomon tomoni bor: birinchisi – har qanday asar o‘zi tarjima qilingan til xususiyatlarini ma’lum darajada o‘ziga singdiradi, tarjima bo‘lgan adabiy muhitga moslashadi; ikkinchisi – vositachi tildan o‘g‘irgan tarjimon muallif qolib, tarjimon talqiniga ergashadi, u sodir etgan xatolarni aynan takrorlaydi. Har qanday tarjima muayyan darajadagi xatolardan xoli bo‘lmasligi haqidagi haqiqatdan kelib chiqsak, uning xatolari vositachi bilan qo‘shilib, ular ikki baravarga ko‘payadi²⁷.

Bugina emas, S.Saidovning kuzatishicha: “Bilvosita tarjima tarjimondan bevosita tarjimaga nisbatan ancha ko‘p kuch sarflashni talab qiladi. Chunki bevosita tarjima qilganda tarjimondan tilni chuqur va mukammal bilishdan tashqari, muhit va davrni o‘rganish, o‘sha xalqning urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish talab qilinsa, bilvosita tarjimada, yuqoridagilardan tashqarida, qo‘shimcha yana bir xalqning tabiiy, iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy yashash sharoitlari, urf-odatlarini, madaniyatini va hatto tilini o‘rganishga to‘g‘ri keladi”²⁸.

²⁶Salomov G‘. Tarjima masalalarini kompleks o‘rganish masalasi. B.63–64

²⁷Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o‘quvqo‘llanma). – Toshkent. 2014. –B.163

²⁸Ochilov E. Tarjimashunoslik termenlarining izohli lug‘ati. – Toshkent.: ToshDSHI, 2014 – B.22

“Har qanday tarjimada asar o‘z fazilatlaridan ma’lum darajada mahrum bo‘ladi. Agar asar tarjimasi bevosita asliyatdan emas, vositachi tildan, yana bir tarjimonning ijodi orqali amalga oshirilsa, tabiiyki, u bu jarayonda yana bir qancha o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Vositachi tilga xos ma’lum g‘oyaviy qarashlar, milliy madaniyat tushunchalari, uslubiy yondashishlar tarjima matniga muayyan yot chizgilarni olib kirishi, tarjimadan tarjima qilingan matnda shu sabab tushunmovchiliklar va chalg‘ishlar vujudga kelishi mumkin. Tarjimonning asliyat tili va matn xususiyatlaridan bexabar bo‘lishi tarjimada adekvatlikka erishish jarayonida qator muammolarni keltirib chiqaradi”²⁹.

Agar tarjimonning asliyatdan tarjima qilish qo‘lidan kelmasa, u tarjimalar ichida eng mukammalidan foydalanishi kerak bo‘ladi.

“Bilvosita tarjimada ko‘pincha originaldan uzoqlashish yuz beradi. Tarjima originalga har qancha yaqin bo‘lmasin, u ikkilamchi asar bo‘lib qolaveradi. Buni tan olish tarjima san‘atini kamsitish emas, chunki har bir davrning tarjimaga o‘z talabi bor: vaqt o‘tishi bilan original o‘zgarmagani holda, tarjima eskirib boradi. Tarjimadan yana boshqa bir tilga o‘girilganda bu xil tarjimanig o‘ziga xos prinsiplariga amal qilinsa, originalga yaqinlikni saqlab qolishning ma’lum imkoniyatlarini topish mumkin”³⁰.

Albatta, bevosita tarjima ham birlamchi hodisa emas. Eng yaxshi tarjima ham asliyatning o‘rnini bosolmaydi. “Agar badiiy asar – ob‘ektiv voqelikning in‘ikosi bo‘lsa , uning boshqa tilga tarjimasi – in‘ikosining in‘ikosidir, tarjima orqali yuzaga kelgan tarjima esa in‘ikos in‘ikosining aks etishidir”³¹.

Hind adabiyotining insonni yashashga o‘rgatuvchi qutlug‘ kitoblaridan biri “Panchatantra” asari ham o‘zbek tiliga bilvosita tarjima qilingan asarlar sarasiga kiradi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek u bir necha bor tillardan tillarga bilvosita tarjima qilingan va o‘zining uslubi va xususiyatlarini deyarli yo‘qotib yuborgan.

²⁹Dosbayeva N.T. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011. –B.20.

³⁰G‘iyosov N. Bilvosita tarjima va milliy tiynat // Tarjima muammolari (Maqolalar to‘plami). 3-kitob.– Toshkent, 1991. – B.82

³¹Salomov G‘. Tarjima masalalarini kompleks o‘rganish masalasi. – B.59

1.3. Asarda bilvosita tarjimaning afzallik va kamchiliklari

Har bir narsaning o‘z kamchiliklari va avzalliklari mavjud bo‘lganidek, bilvosita tarjima ham shunday ikki jihatga ega. Mashhur hind masallaridan hisoblangan “Panchatantra” asari ham bilvosita tarjima bo‘lganligi sababli ayrim kamchiliklarga ega.

Tarjima jarayonida ayrim gaplar o‘z shaklini, mazmunini hamda o‘z stilini yo‘qotganini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ham aytish kerakki, “Panchatantra”ning asl nusxasi nasriy uslubda yozilgan bo‘lib unda she’riy jumlar kuzatilmaydi. Ammo, rus tiliga va rus tilidan o‘zbek tiliga bilvosita o‘girilgan tarjimalarida ko‘plab she’riy jumalarni uchratishimiz mumkin. Oldingi davrlarda tarjimaga jiddiy qaralmagan va erkin tarjima qilingan. Buning natijasida esa bo‘yoqdorlik ortib ketgan. Bularning ta’siri esa vositachi til orqali boshqa tarjimalarga ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbek tiliga bo‘lgan tarjima ham shular jumlasidandir. Misol uchun asar boshidagi quyidagi she’riy parchani olaylik:

Сошелся лев с быком в лесу, и их привязанность росла,

*Но жадный клеветник-шакал навек ту дружбу погубил*³².

Ushbu she’riy jumlaning Sirkin tarjimasida kuzatishimiz mumkin, asl Purnabhadra nusxasida u mavjud emas. To‘g‘ri kitobni o‘qib chiqsak ushbu she’riy jumla mos tushishini va o‘rinli qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, asliyatdan mutlaqo farq qiladi. Buyerda ortiqcha bo‘yoqdorlikdan foydalanilgan. Tarjimadagi erkinlik haddan ziyod ortiqcha. Shu bilan birga u bilvosita tarjimada ham o‘zaksini topgan:

Do‘stlashdilar o‘rmonda arslon, ho‘kiz ikkovi,

*Bir-biridan do‘stlarni ayirdi qabih shag‘ol*³³.

Yuqoridagi she’riy jumla Ibrohim G‘ofurov tarjimasiga tegishli o‘zbek tilidagi tarjimasining ifodasi. Asliyatda she’riy jumla bo‘lmasa ham bilvosita tarjima natijasida ushbu o‘zgarish o‘zbek tilida ham o‘z aksini topgan. Bu esa

³²Сыркин А. Пanchatantra. – Москва, 1930. – С.11

³³G‘ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.10

asarning asliyatdagi uslubining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Bu haqida keying boblarimizda yana ham chuqurroq to'xtalib o'tamiz.

Bilvosita tarjima asarning nafaqt uslubiga balki uning boshqa jihatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Misol uchun quyidagi jumlaning ko'raylik:

दक्षिण देश में महिलारोप्य नाम का एक नगर था।³⁴

Rus tilida quyidagicha talqin qilingan:

*Есть в южных странах город под названием Махиларопья, соперничающий с городом Пурандары, одаренный всеми достоинствами, лучшее сокровище земли, подобный вершине Кайласы*³⁵.

Yuqorida "Panchatantra" asarining Sirkin tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi ko'rsatildi. Ushbu tarjima asliyatdan anchagina farq qiladi. Unda keragidan ortiq qo'shimcha jumlar qo'shib yuborilgan. To'g'ri tarjimon asarga ijodiy yondoshgan holda uni erkin tarjima qilish huquqiga ega albatta. Ammo, uning ham o'z chegarasi bor. Qachonki, tarjimon asarga kiritgan qo'shimchalar uning asliyatdagi shakliga, ruhiyatiga, milliyligi va shu kabi jihatlariga putr yetkazmasagina, u qo'shgan qo'shimchalar asosli deb topiladi. Yuqorida keltirilgan misoldagi qo'shimcha esa keraksiz joyda qo'llanilgan. Shu bilan birga undagi kamchilik asarning aynan shu ko'rinishidagi tarjimasidan boshqa tillarga o'girilgan variantlarida ham o'z aksini topgan. Quyidagi misolni ko'raylik:

*Janub mamlakatida Purandara shahri bilan raqobat qiluvchi obod hamda gavjum Maxiloropya shahri mavjud*³⁶.

Bu Ibrohim G'ofurov tomonidan bilvosita tarjima qilingan ko'rinishidir. Unda ham xuddi rus tilidagi bo'rttirish yuzaga kelgan. Asliyatdan mutlaqo farq qiladi. Ayrim tarjimonlar vaziyatdan kelib chiqqan holda, yo ikki jumlaning bir jumlagi, yo uzun tuzilgan jumlaning ikki jumlagi ajratgan holda tarjima qilishadi. Lekin bu yerda unday holat yuz bermagan asliyatda berilgan gapning so'zma so'z tarjimasi quyidagicha:

³⁴अशोक कौशिक। पंचतंत्र। – नयी दिल्ली। २००३ – प।९

³⁵Сыркин А. Пanchatantra. – Москва, 1930.–В.5

³⁶G'ofurov I. Panchatantra yohud muqaddas besh kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.10

Janub mamlakatlari ichida Mahiloropya nomli bir mamlakat bor.

Asl Purnabhadra nusxasi “Panchatantra” asaridagi ushbu jumlaning soʻzma soʻz tarjimasi shu koʻrinishda boʻlishi mumkin edi. Bilvosita tarjima natijasida esa bundan kamchilik yuzaga kelgan.

Bundan tashqari hindiy tili alifbosida qisqa “a” va choʻziq “aa” mavjud va unli harflar soʻz orasida kelganida matra holatida yoziladi. Hindiy tili unli harflari ichida qisqa “a” soʻz orasida kelsa matra shaklida u hech qanday belgi koʻrinishida yozilmaydi. Shunchaki hindiy tilida mavjud qoidalarga tayangan holda soʻz orasida qisqa “a” unlisi borligini bilamiz va talaffuz qilamiz.

“Panchatantra” asarining rus tiliga oʻgirilgan tarjimasida aynan shu bilan bogʻliq muammolar yuzaga kelgan. Asardagi koʻplab qahramonlar nomi va ayrim shaharlar nomi undosh harflari bilan tugagan va ulardan keyin qisqa “a” unlisi mavjud emas, ammo, rus tiliga oʻgirilgan tarjimada barcha atoqli otlardan soʻng “a” unlisi qoʻshib oʻgirilgan. Bu kabi holatlarni quyidagi misollarda koʻrishimiz mumkin:

- **संजीवक** – *Сандживака*

- **करटक** – *Каратака*

- **दमनक** – *Даманака*

- **पिंगलक** – *Пингалака* va shu kabilar

Tarjimashunoslikda lisoniy va gʻayrilisoniy muammolar mavjud. Lisoniy muammolarga til bilan bogʻliq boʻlgan barcha muammolar kiradi. Yaʼni, uning Grammatik qoidalariga putr yetishi, jins, son, sifat va shu kabi kategoriyalariga putr yetkazuvchi muammolar kiradi. Gʻayrilisoniy muammolarga esa tilga taʼsir etuvchi tashqi omillar bilan bogʻliq muammolar yaʼni, uning madaniyati, milliyligi va shu kabilar bilan bogʻliq muammolar kiradi.

Yuqorida biz ko‘rgan tarjimadagi xatolik esa aynan lisoniy muammolar bilan vujudga kelgan kamchilikdir. Ammo bur us tarjimonining kamchiligi emas, chunki, rus tili grammatikasida ismlarga “a” unlisi qo‘shib talaffus qilinadi. Misol uchun hindiy tilidagi “Raam” ismini ham ruslar “Rama” deyishadi. Bu aynan rus grammatikasiga xos holat.

Lekin bilvosita tarjima orqali u o‘zbek tiliga xato tarjima qilingan. Sababi, o‘zbek tilida bunday qoida mavjud emas. Tarjimon tilning shu jihatiga ahamiyat bermaganligi sababli quyidagi holat vujudga kelgan:

- *Сандживака* – *Sanjivaka*
- *Каратака* – *Karataka*
- *Даманака* – *Damanaka*
- *Пингалака* – *Pingalaka* va shu kabilar.

Endi esa quyidagi mkisolga e’tibor qarataylik:

वर्धमान नाम के नगर में दन्तिल नाम का आभूषणों का व्यापारी

रहता था ।³⁷

Uning rus tiliga o‘girilgan nusxasi quyidagicha:

В одной стране воедино местности находился монастырь. Жил там нищенствующий монах по имени Девашарман³⁸.

Yuqoridagi misolda shahar nomi tarjimada ko‘rsatilmagan ham, bundan tashqari savdogar nomi noto‘g‘ri tarjima qilingan. Umuman agar gapni so‘zma so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak ham mutlaqo boshqa tarjima yuzaga keladi:

Vardhman nomli shaharda Dantil isimli zargarlik buyumlari bilan savdo qiluvchi savdogar istiqomat qilar edi.

Bu “Panchatantra” asarining asliyatdan o‘girilgan so‘zma so‘z tarjimasi. Rus tiliga o‘girilgan tarjima esa asliyatdan butunlay farq qiladi. Sirkin tarjimasi orqali o‘zbek tiliga qilingan tarjima quyidagicha:

³⁷अशोक कौशिक। पंचतंत्र। - नयी दिल्ली। २००३ - प।18

³⁸Сыркин А. Панчатантра – Москва, 1930. – С .25

*Bir mamlakatning ovloq bir yerida xonaqoh bo'lardi. U yerda tarki dunyo qilgan rohib Devasharman yashardi*³⁹.

O'zbek tiliga o'girilgan tarjimada ham huddi rus tilidagi kamchilikni ko'rishimiz mumkin. Unda ham huddi rus tilidagi xatolik yuzaga kelgan. Bilvosita tarjima ma'noni ham mutlaqo o'zgartirib yuborgan desak ham bo'ladi. Bunga qo'shimcha sifatida shuni ham aytishimiz mumkinki, bu jumladan so'ng asliyatda mavjud bo'lmagan she'riy parcha ham mavjud:

*Несчастье деньги собирать, хранить, другому отдавать,
Несчастье, если пропадут. Да! С горем деньги связаны*⁴⁰.

Ushbu she'riy parcha asl nusxada umuman mavjud emas. Rus tiliga o'girilgan tarjimada esa asarni balki, yanada go'zallashtirish maqsadida qo'shilgan. Ammo, u asar shaklini o'zgartirib yuborgan. O'zbek tiliga o'girilgan bilvosita tarjimada ham u mavjud. Tarjimon ushbu she'riy parchani ham tarjima qilgan va asarga qo'shgan:

*Пул топish, yig'ish, saqlash, qarzga berish qiyindir,
Yo'qotsang, undan og'ir. Pul keltirar baxtsizlik*⁴¹.

Bilvosita tarjima natijasida o'zbek tilidagi tarjima asarda ham ushbu kamchilik aks etgan. Biz bunda tarjimonni butunlay ayblay ham olmaymiz. Buning bari bilvosita tarjima natijasida vujudga kelgan. Shuni ham aytishimiz kerakki, Sirkinning rus tiliga o'girilgan tarjimasi tarjimalar ichida eng mukammali hisoblanadi. Ibrohim G'ofurov ham aynan shuning uchun rus tarjimoni Sirkin qalamiga mansub tarjimini asos qilib tanlagan. Afsuski, bundan ko'plab kamchiliklar yuzaga kelgan.

Asarda boshqa turdagi kamchiliklar ham mavjud. "Panchatantra" asari yuqorida ta'kidlaganimizdek hikoya ichida hikoya uslubida yaratilgan asardir. Bu uslub ko'plab aynan hind adabiyotiga tegishli asarlarda uchraydi. Asar besh bobdan iborat bo'lib, har bir bob kichik hikoyalardan iborat va ularning barchasi o'z nomiga ega. Ammo tarjimada hech bir hikoyaning nomi tarjima qilinmagan.

³⁹G'ofurov I. Panchatantra. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2013. – B.32

⁴⁰Сыркин А. Панчатантра – Москва, 1930. – В.25

⁴¹G'ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.32

Kitobning birinchi bobi yigirma bitta hikoyadan iborat va ularning bari o‘z nomiga ega ular quyidagicha:

दुष्ट और लोभी - Birinchi hikoya

कील उखाड़ने वाला वानर - Ikkinchi hikoya

ढोल की पोल - Uchinchi hikoya

दन्तिल और गोरम्भ - To‘rtinchi hikoya

लोभी संन्यासी - Beshinchi hikoya

विष्णुरूपी जुलाहा - Oltinchi hikoya

कौए की चतुराई - Yettinchi hikoya

बगुले और केकड़े का संघर्ष - Sakkizinchi hikoya

बुद्धिमान खरगोश - To‘qqizinchi hikoya

कुसंगति का कुपरिणाम - O‘ninchi hikoya

मूर्ख सियार - O‘n birinchi hikoya

चतुर कौआ - O‘n ikkinchi hikoya

छोटी सीटिटिहरी और विशाल समुद्र - O‘n uchinchi hikoya

मूर्ख कछुआ - O‘n to‘rtinchi hikoya

जो होगा, देखा जाएगा - O‘n beshinchi hikoya

चिड़िया और हाथी का युद्ध - O‘n oltinchi hikoya

मूर्ख सिंख और चतुर सियार - O‘n yettinchi hikoya

दुर्बुद्धि वानर धर्मबुद्धि और पापबुद्धि - O‘n sakkizinchi hikoya

बगुले का अधूरा उपाय - O‘n to‘qqizinchi hikoya

जैसे को तैसा - Yigirmanchi hikoya

चोर ब्रह्मण का कृत्य - Yigirma birinchi hikoya

Ikkinchi bobi esa oltita hikoyadan tashkil topgan bo'lib ular quyidagicha nomlanadi:

मित्र की खोज - Birinchi hikoya

संन्यासी और चूहा - Ikkinchi hikoya

कार्य और कारण - Uchinchi hikoya

अधिक लालच का फल - To'rtinchi hikoya

भाग्य का फल - Beshinchi hikoya

मन्दभाग्य सोमलिक - Oltinchi hikoya

Uchinchi bob o'n sakkizta jikoyadan iborat. Ularning nomi quyidagicha:

कौआ और उल्लू - Birinchi hikoya

कौओं और उल्लुओं में वैर का कारण - Ikkinchi hikoya

नाम की प्रसिद्ध की महिमा - Uchinchi hikoya

नीच का न्याय - To'rtinchi hikoya

बार-बार बोला गया झूठ भी सच हो जाता है - Beshinchi hikoya

संगठन की शक्ति - Oltinchi hikoya

लोभ का कुफल - Yettinchi hikoya

शरणागत की उपेक्षा का फल - Sakkizinchi hikoya

अतिथि का सत्कार - To'qqizinchi hikoya

युवती और वृद्धवणिक - O'ninchi hikoya

शत्रुओं के परस्पर विवाद से लाभ - O'n birinchi hikoya

घर का भेदी लंका ढावे - O'n ikkinchi hikoya

कुलटा पत्नी का मूर्ख पति - O'n uchinchi hikoya

चुहिया और स्वजाति-प्रेम - O'n to'rtinchi hikoya

मूर्ख मण्डली - O'n beshinchi hikoya

भावी संकट से सावधानी - O'n oltinchi hikoya

बुद्धिमान की चातुरी - O'n yettinchi hikoya

अनुकूल अवसर की प्रतीक्षा में - O'n sakkizinchi hikoya

To'rtichi bob o'n bitta hikoyadan tashkil topgan. Ular quyidagicha nomlangan:

बन्दर की चतुराई - Birinchi hikoya

परस्पर वैर का कुफल - Ikkinchi hikoya

गधे की मूर्खता - Uchinchi hikoya

बनावटी क्षत्रिय - To'rtinchi hikoya

स्वभाव बदलना असम्भव है - Beshinchi hikoya

कुलटा की कहानी - Oltinchi hikoya

राजा और मन्त्री दोनों पत्नी के दास - Yettinchi hikoya

गधे की मूर्खता, त्रिया-चरित्र - Sakkizinchi hikoya

धण्टाधारी ऊंट - To'qqizinchi hikoya

चतुर शृगाल - O'ninchi hikoya

कुत्तों का स्वजाति-वैर - O'n birinchi hikoya

Beshinchi bob esa o'n beshta hikoyachalardan tashkil topgan va ular quyidagi nomlarga ega:

नाई की मूर्खता - Birinchi hikoya

बिना विचारे जो करे सो पाछे पछताय - Ikkinchi hikoya

अतिलोभ का दुष्परिणाम - Uchinchi hikoya

विद्वान मूर्ख - To'rtinchi hikoya

मूर्ख पण्डित - Beshinchi hikoya

अपना-अपना भाग्य - Oltinchi hikoya

भली सीख न मान्ने का बुरा फल - Yettinchi hikoya

मूर्ख की सीख बड़ी दुःखदायी - Sakkizinchi hikoya

जो कभी न हुआ - To'qqizinchi hikoya

जैसे को तैसा - O'ninchi hikoya

त्रिकाल राक्षस और वानर - O'n birinchi hikoya

भाग्य का फल - O'n ikkinchi hikoya

ब्राह्मन की सुबुद्धि - O'n uchinchi hikoya

फूट का फल - O'n to'rtinchi hikoya

केकड़े का भी लाथ भला - O'n beshinchi hikoya

Rus tilida esa boblarning o'zini nomi o'girilgan xolos. Hikoyalar esa quyidagicha tartibda yozilgan:

*Рассказ первый*⁴²

*Рассказ второй*⁴³

*Рассказ третий*⁴⁴

*Рассказ четвертый*⁴⁵

⁴²Сыркин А. Панчатантра. – Москва, 1930. – С.8

⁴³Тот же. – С.17

⁴⁴Тот же. – С.21

⁴⁵Тот же. – С.25

Shu tariqa birinchi bobda ikkinchi bobga qadar davom etadi. Har bir bobdagi hikoyalar nomi tartib raqamlari bilan nomlangan. Uning nomlari tarjima qilinmagan.

Va albatta, bu o‘z aksini o‘zbek tilida ham namoyish qilgan. Yuqorida ko‘rsatilganidek har bir hikoya birinchi, ikkinchi, uchinchi va shu kabi tartibda keltirilgan.

Bu ham bilvosita tarjimaning kamchiliklaridan yana biri hisoblanadi. Bir tildagi xato undan qilingan tarjimada ham o‘z aksini topgan.

Agar asliyatdan tarjima qilinganda ayrim hikoyalar quyidagicha nomlangan bo‘lar edi:

ब्राह्मन की सुबुद्धि - *Halol Brahman*

मूर्ख पण्डित - *Panditning soddaligi*

बन्दर की चतुराई - *Maymunning zukkoligi*

गधे की मूर्खता - *Eshshakning ahmoqligi*

अपना-अपना भाग्य - *Taqdir*

नाई की मूर्खता - *Ahmoq sartarosh*

Shu kabi kamchiliklar uchrasada biz bilvosita tarjimadan butunlay vos kecha olmaymiz. “Panchatantra” asarining o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimasida ham to‘g‘ri tarjima qilingan jummlar juda ko‘p. Bilvosita tarjima qilingan bo‘lsada asarda ko‘plab to‘g‘ri va go‘zal tarjima qilingan jummlar ham mavjud. Bundan tashqari aynan bilvosita tarjima natojasida “Panchatantra” asari va boshqa mashhur asarlar dunyo yuzini ko‘rgan va boshqa mamlakatlarga yoyilgan.

“Panchatantra” masali besh kitob ya’ni besh bobdan tashkil topgan bo‘lib har bir bob o‘z nomiga ega.

Birinchi kitobning nomi asliyatda berilishi: **“मित्रभेद”**

Rus tilidagi tarjimada berilishi: *Разъединение друзей*

O‘zbek tilidagi tarjimada berilishi: *Do‘stlarning judo bo‘lishi*

Ikkinchi kitob nomining asliyatda berilishi: “**मित्र सम्प्राप्ति**”

Rus tilidagi tarjimada berilishi: *Приобретение друзей*

O‘zbek tilidagi tarjimada berilishi: *Do‘stlar orttirish*

Uchinchi kitob nomining asliyatda berilishi: “**काकोलूकीय**”

Rus tilidagi tarjimada berilishi: *О воронах и совах*

O‘zbek tilidagi tarjimada berilishi: *Qarg‘alar va boyqushlar haqida*

To‘rtinchi kitob nomining asliyatda berilishi: “**लब्धप्रणाश**”

Rus tilidagi tarjimada berilishi: *Утрата приобретенного*

O‘zbek tilidagi tarjimada berilishi: *Nasibani yo‘qotish*

Beshinchi kitob nomining asliyatda berilishi: “**अपरीक्षित कारक**”

Rus tilidagi tarjimada berilishi: *Безрассудные поступки*

O‘zbek tilidagi tarjimada berilishi: *Nodon qiliqlar*

Asardagi har bir bobning nomi rus tiliga to‘g‘ri o‘girilgan shu sababli ham o‘zbek tiliga bilvosita qilingan tarjimada ham xatoliklar kuzatilmaydi. Agar tarjimon asarning tarjimalari ichida eng mukammalini tanlab tarjima qilsa, xatolar kamroq bo‘ladi.

Quyidagi misolni ham ko‘raylik:

पगलक ने पूछा, “यह कैसे हुआ ?”⁴⁶

“Rus tiliga quyidagicha o‘girilgan:

*Сандживака спросил: “Как это?”*⁴⁷

O‘zbek tilida quyidagicha:

*Sanjivaka so‘radi: - Bu qanday bo‘ldi?*⁴⁸

⁴⁶अशोक कौशिक। पंचतंत्र। - नयी दिल्ली। २००३ - प।15

⁴⁷Сыркин А. Панчатантра – Москва, 1930. – С.20

⁴⁸G‘ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2013. – B.26

Ushbu tarjimada ham deyarli kamchilik yo‘q eng asosiysi ma’no to‘g‘ri ifodalangan, ammo, negadir asliyatdagi “Pingalak” nomi “Sanjivaka” nomi bilan o‘zgartirilgan. Bu ham asar shaklining o‘zgarishiga olib kelgan.

1-bob yuzasidan xulosa

“Panchatantra” asari o‘zbek xalqining yuragidan joy olgan asarlardan hisoblanadi. Shu bilan birga hind adabiyotining qadimiy va noyob asarlaridan biridir. Dunyo bo‘ylab uning turli tillarga bo‘lgan tarjimalari mavjud va bu asar insonni ezgulikka yetaklaydi, to‘g‘ri yashashga o‘rgatadi. Ushbu asarning tarixiga nazar solsak, uning shohlarni tarbiyalash va ularga davlatni boshqarishni o‘rgatish uchun yozilgan asar ekanligini bilishimiz mumkin.

Shu bilan birga ushbu asar bilvosita tarjima bo‘lgan asarlar sarasiga kiradi. Shuning uchun ham uning shakli va uslubi asl Purnabhadra nusxasidan anchagina farq qiladi. Yuqoridagi misollarda asardagi ayrim xatoliklarning guvohi bo‘ldik. Bilvosita tarjima tarjimashunoslikdagi yechimi topilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Ammo, hozirgi kunda chet tillarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘ylaymanki bu ish harakatlar zoya ketmaydi. Mohir tarjimonlar soni ham ortadi va shundagina bilvosita tarjimani butunlay yo‘q qila olmasakda, uning sonini kamaytirishga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

II BOB. PANCHATANTRA ASARIDA USLUB MASALASI

2.1. Asarda tarjimon va muallif uslubi

Uslub masalasining murakkabligi haqida akademik V. V. Vinogradov to'g'ri fikrni aytdi: "San'atshunoslik, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda uslub termini, uslub tushunchasi kabi va juda ko'p ma'noli, bir-biriga qarama – qarshi, hali o'ziga mos ta'rifga ega bo'lmagan, chigal, sub'ektiv-noaniq bir termin yoki tushunchani topa olmaymiz. Shuning bilan birga, hech bir san'at nazariyasi stilsiz yashay olmaydi, uni chetlab o'tolmaydi. Uslub kategoriyasi ko'pincha ilmiy-tarixiy nazariyaning muhim asoslaridan biri hisoblanadi"⁴⁹.

Stilistika o'zi alohida bir fan bo'lib, uni ba'zi bir olimlar "tilshunoslik ilmining bir qismi" deydilar, ba'zilar esa "yo'q uslub adabiyotshunoslikning bir bo'lagi" deydilar.

Stilistikaning qaysi fanga kirishidan qat'iy nazar, bu masalani jiddiy o'rganish kerak stilistika, bizning fikrimizcha, umumfilologiyaning bir bo'lagidir.

Uslub haqida buyuk munaqqid V.G. Belinskiy shunday degan edi: "Uslub bu talant, tafakkurning o'zi demakdir, uslub-bu fikrning bo'rtib chiqishi va yaqqol sezilishidir. Uslubda odamning o'zi butunlay ko'rinadi, uslub hamma vaqt shaxs kabi, harakter kabi originaldir. Shuning uchun har bir ulug' yozuvchining o'z uslubi bo'ladi"⁵⁰.

Uslubning ikki xil ma'nosi bor: tor ma'nodagi uslub va keng ma'nodagi uslub. Yozuvchilardagi uslub bu tor ma'noga kiradi. Keng ma'nodagi uslub esa o'z ichiga katta-katta masalalarni oladi, masalan, oddiy nutq uslubi, tashviqot-targ'ibotchilar nutqi uslubi, gazeta maqolalalari uslubi, ilmiy, texnikaviy asarlar uslubi, rasmiy va ish yuritish xujjatlari uslubi va xokazolar. Bundan tashqari, yumoristik uslub, satirik uslub, intim-ichki xissiyot uslublari borki, bularning har

⁴⁹ Виноградов В. Проблема авторства и теория стилей, – Москва: ГИХЛ – 1961. – С. 7

⁵⁰ Белинский В. Собр. соч., в трех томах, т. II, – Москва. 1948,– С. 604

biri ma'lum hususiyatlarga ega, har qaysisining o'ziga yarasha ichki tuzilishi (strukturasi), termin leksikalari mavjud⁵¹.

Uslub so'zini san'atga nisbatan ham ishlatadilar, masalan, arxitektura uslubi, musiqa uslubi, rassomchilik uslubi va boshqalar. Har qaysi tarixiy davrning o'z uslubi bo'lib, bular ma'lum bir metod va metodologiya bilan bog'langan. Uslub va stilistika tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Masalan, Rossiyada XVI asrning ikkinchi yarmidan XVIII asrning oxirigacha adabiyotda uch asosiy uslub xukmron edi,⁵² ular yuqori uslub, o'rta uslub, tuban uslubga bo'linardi. Bu uch uslub sistemasini nazariy jixatdan Lomonosov asosladi va har qaysi uslubga kiradigan so'zlarni guruhlariga ajratdi. Birinchi cherkov-slavyan tilida boru, lekin rus tilida yo'q so'zlar, uchinchi guruhga esa faqat rus tilida bor, lekin cherkov-slavyan yodgorligida bo'lmagan so'zlarni kiritdi. Yuqori uslubda cherkov-slavyan tilidagi so'zlar ishlatilsa, tuban stilda esa cherkov-slavyan tili so'zlari ishlatilmas edi. Bu uch uslubning o'z janrlari bo'lib, yuqori uslubda qaxramonlik dostonlari, qasida (oda), tantanali nutqlar yozilardi, o'rta uslubda satira, elegiya, tarixiy asarlar, tuban stilda esa komediya, qo'shiq do'stlik xatlari yozilardi⁵³.

Badiiy tarjimada uslub masalasi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, uslub to'g'risida aytilgan yuqoridagi gaplarga ham e'tibor qilishimiz kerak bo'ladi.

Tarjimon biror yozuvchining asarini tarjima qilar ekan, uning stilini albatta berishi kerak. Bu adabiy tarjimaning asosiy qoidalaridan biri, tarjimonning ustaligi esa original asarning uslubini bera bilishidadir. Agar tarjimon o'sha yozuvchining uslubini bermasa, u vaqtda tarjima bo'sh chiqadi va nursiz, rangsiz, qonsiz, chala jonday bo'lib ko'rinadi. Eng mohir tarjimonlarning asarlari shuning uchun ham o'lmas asarlar bo'lib qoladiki, ular original asar avtorining ruhi va uslubini bera oladilar. Bu og'ir vazifani bajarish uchun tarjimon har turli yo'llarni axtaradi, o'z qalamini charxlab o'tkirlaydi, natijada mashhur tarjimonga aylanadi.

Darhaqiqat, muallif uslubini berolmagan va uni buzgan tarjima qanotsiz, dumi yulingan cho'loq qushga o'xshaydi. Bu tarjimani tarjima deb ham bo'lmaydi. Uni

⁵¹ Белинский В. Собр. соч., в трех томах, т. II, М., Огиз, 1948, – С. 604

⁵² Виноградов В. Проблема авторства и теория стилей, М.: ГИХЛ, 1961, – С. 8.

⁵³ Томашевский В. Язык и стиль. Л., 1952, – С. 9.

tahrir qilib, tuzatib chiqish amrimahol. Yaxshisi ularni qaytadan tarjima qilish kerak.

Uslub asarning ruhiyatini, madaniyatini, millatini tasvirlovchi muhim hislatlaridan hisoblanadi. Aynan asar uslubi orqali biz asar qaysi millatga yoki qaysi avtorga tegishli ekanini asarni o‘qish jarayonida bilishimiz mumkin. Chunki, har bir muallifning qolaversa millatning boshqalardan ajralib turuvchi o‘z uslubi bo‘ladi.

Aynan yozuvchi uslubi haqida iste’dodli tarjimashunoslarimizdan biri Ergash Ochilov shunday deydi:

“Yozuvchi uslubi – muallifning badiiy harakter yaratishdagi o‘ziga xos tili, tasvir usuli. Har bir yozuvchining o‘z uslubi bo‘ladi. Masalan, A.P.Chexov uslubi qisqalik, lo‘ndalik, soddalikdan iborat bo‘lib, voqelikning eng muhim nuqtasini qalamga olsa, L.N.Tolstoy uslubi, aksincha, uzun va murakkab jumlar tuzish, voqelikni butun tavsilotlari bilan tasvirlashga asoslanadi. Har bir yozuvchi uslubining ana shunday o‘ziga xosliklarini tarjimada ham albatta aks ettirish shart. Holbuki, Tolstoyning bir-birining ustiga “mindi-mindi bo‘lib ketgan” (Chexov iborasi) – bir-bir yarim sahifagacha cho‘zilgan katta-katta tizma gaplarini tarjima jarayonida tarjimonlar ko‘picha bo‘lib yuboradilarki, muallifning uslubini buzishi jihatidan bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. G‘. Salomov va N. Komilovlarning yozishlaricha: “Badiiy tarjima ikki uslubning birikishidan hozil bo‘lgan yangi adabiy hodisadir... Badiiy tarjimada aniqlikka erishish faqat yozuvchining individual uslubini aks ettirish orqali amalga oshadi. Uslubni berolmagan tarjimon aniqlikni da’vo qilolmaydi... tarjimada muallif uslubini saqlash deganda, tarjimonning individualligidan xoli narsani, ya’ni muayyan asarni hech o‘zgarishsiz butun borlig‘i bilan yangi til qobig‘iga o‘tkazish tarzida tushunmasdan, balki tarjimonning o‘zligi bilan qo‘shilgan holda voqe bo‘lish ma’nosida tushunish darkor. Boshqacha aytganda, tarjimon, agar u muallifga, asl nusxaga sodiq qolmoqchi bo‘lsa, asar sehrini o‘z kitobxoniga yetkazmoqchi bo‘lsa, bu san’atni o‘zining ijodi, sa’ati zaminida barpo etishi lozim. Bunday tarjimalarni

o‘qiganda, ham muallif mahorati, uning o‘ziga xos ovozi his qilish ham tarjimon “dasxati”ni individualligini ko‘rish mumkin bo‘ladi”⁵⁴.

Bundan bilsak bo‘ladiki yozuvchi uslubi asarning muhim hislatlardan biridir. Tarjimon esa shunday mahoratga ega bo‘lishi kerak-ki, unda ham muallif uslubi, ham tarjimon uslubi namoyon bo‘lishi kerak. Shu bilan birga tarjimada uslubiy maydon degan tushuncha ham mavjud bo‘lib, tarjimashunos Ergash Ochilov unga quyidagicha ta’rif beradi:

“Tarjimada uslubiy maydon – muayyan muallif uslubini har tomonlama keng va chuqur tadbiiq etib, sinchiklab kuzatib, uning o‘ziga xos muhim jihatlarini aniqlagan holda, uning ijodini yalpi xodisa sifatida o‘rganish. Bu tarjimon uchun muayyan yengillik va qulaylik yaratadi: muallifning umum uslubiga xos xususiyatlardan ehtiyoj tug‘ilganda uning turli asarlari tarjimasida foydalanishi mumkin”⁵⁵.

Darhaqiqat, tarjimon biron bir tarjimaga kirishishdan avval adibning uslubini yaxshilab o‘zlashtirib olsa, tarjima mukammalroq chiqadi. Bundan tashqari tarjimadagi muallif uslubi qolaversa, asar ruhiyatiga putr yetmaydi.

Albatta, asl nusxa uslubini har qaysi tarjimon ham beravermaydi, shuning uchun ham ular bo‘sh, xom-xatala, qonsiz, jonsiz tarjimalar bo‘lib chiqadiki, bu xol asl nusxa muallifiga nisbatan xiyonat qilishdan boshqa narsa emas. Tarjimon biror badiiy asarni tarjima qilmoqchi bo‘lsa, birinchi galda uning uslubini berishga harakat qilishi shart. Buning uchun katta tarjimonlardan o‘rganish, ularning tutgan yullari, tarjima sirlarini bilib olish zarur bo‘ladi.

Ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan tarjimonning so‘z zaxiralari, boy leksikasi, jumla to‘zishdagi o‘ziga xos hususiyatlari, boshqa tarjimondan ajratib turadigan ayrim yuli bor, tarjimashunoslar ulug‘ san`atkor, tarjima ustalarining mana shu tomonlarini urganishlari kerak bo‘ladi. Ayrim hususiyatlarni umumiy mushtarak hususiyatlar bilan bog‘lagan tomonlarini ko‘rsata bilishlari nihoyatda zarur.

⁵⁴Ochilov E. Tarjimashunoslik termenlarining izohli lug‘ati. – Toshkent.: ToshDSHI, 2014 – B.30

⁵⁵ Ochilov E. Tarjimashunoslik termenlarining izohli lug‘ati. – Toshkent.: ToshDSHI, 2014 – B.90

Bundan tashqari yozuvchi va asar orqali u qaysi millat asari ekanligini bilib olishimiz mumkin. Hind adabiyotida ham ko‘p va xo‘p ijod qilgan ijodkorlar talaygina.

Misol uchun, Robindranath Tagor, Premchand, Kabir, Surdas, Mirabai va shu kabilar. Ularning har bir o‘z uslubiga ega bo‘lib, o‘zgachaligi bilan farq qilib turadi.

Misol uchun, Kabir (1440-1518), Nanak (1469-1539), Surdas (1483-1563), Mirabai (1499-1547), Tulsidas (1532-1624), Dadu-dayal (1544-1603), Sundardas (1596-1689), Rasxan (16-17-asr) va boshqa shoirlar nazmda asosan do‘hiy (ikkilik), chaupai (to‘rtlik), vinai (qofiyasiz) kabi janrlarda ijod etdilar⁵⁶.

Hind xalqining mashhur yozuvchilaridan biri Tagor hikoyalarining muhim fazilatlaridan biri shundaki, yozuvchi xalqning yuksak ma‘naviy qiyofasini haqqoniy va ishonarli qilib ochib beradi, uning kundalik og‘ir va qorong‘u hayotini ko‘rsatadi. U oddiy odamlarni zo‘r muhabbat bilan tasvir etib, boylarning koshonasidan ko‘ra kambag‘allarning kulbasida insoniylik ko‘proq ekaniga o‘quvchini ishontiradi.

Hikoyalarda Tagor o‘zini psixologik tahlillar ustasi va kishi qalbining nozik bilarmoni sifatida ko‘rsatadi.

Tagor hikoyalarida ishlatilgan tasvir vositalari g‘oyat rang-barang. Ayniqsa, tabiat manzaralari unga juda qo‘l kelib, biror obraz va kayfiyatni yaratmoq uchun fon vazifasini bajaradi. Robindranath Tagorning ko‘p hikoyalari yengil yumor, ixchamlik, kompazitsiyaning o‘ziga xosligi, syujetning jo‘shqinligi va rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi.

Hindiston adabiyotiga xos bo‘lgan ancha asrdan beri rivojlanib kelayotgan romantizm an‘analari va belgilari Tagor qalamiga mansub bo‘lgan ko‘p hikoyalarda o‘z aksini topgan.

Umuman olganda Tagor hikoyalarida bosh qahramonlarning ichki dunyosini, xissiyotlarini ochib berganda Tagor she‘riyatga oid ramzlarni va timsollardan mohirona foydalangan.

⁵⁶ <https://uz.wikipedia>

Xususan “Daliya” hikoyasida ham to‘qima ham real bo‘lish manzaralari bilan ketma-ket keladi. Hikoyada ko‘proq urg‘u badiiy to‘qimaga qaratilgan va shuning uchun bu hikoyada ko‘proq tarixiy faktga emas’ balki tarixiy to‘qimaga tayanilgan.

Bosh qahramonlarning obrazlarini tuzilishida esa kontras ya’ni qarama-qarshilik ishlatilgan. Zero, undagi Amina va Julikha ya’ni opa singillar obrazlari bir biriga qarama qarshi xarakterda tasvirlangan.

Hindiston adabiyotshunoslari ayniqsa, Bengal tanqidchilari xususan Sh.Shen shunga e’tibor beradiki, Tagorning hikoyalarida muallif hikoyaning olamiga chuqur cho‘kib botib ketganligi seziladi va ularda Tagor shaxsiyatining xissiyoti ham seziladi. Asosan Tagor hikoyalarida hayotiy borliq, haqqoniylik realistic usuliga xos bo‘lgan belgilar aniq ko‘rinadi. Bu to‘g‘risida Tagor o‘z maqolalarida shunday yozadi: “Men yozgan hikoyalarim asosida meni o‘zim ko‘rgan narsalar yotadi yoki ular mening tajribam”.

Tagor hikoyalari hajmi jihatidan kichikroq, ammo, mazmun jihatidan keng yoritib, o‘zida olam-olam ma’nolarni aks ettiradi.

“Daliya” hikoyasini Tagor mavhum qilib tugatadi ya’ni uning xulosasini kitobxonning o‘ziga havola etadi. Bu ham Tagor uslubining bir ko‘rinishi desak ham bo‘ladi. Asar yakunini quyidagicha tugatadi:

जुलेखा ने आगे बढ़कर बादशाह के पास जाकर देखा, बादशाह चुप बैठा हुआ बड़े मजे से ले-लेकर मुसकरा रहा है!

जुलेखा अकस्मात् बोल उठी, “दालिया!”

मुर्चिछात हो गई।

दालिया उठाकर उसे घायल चिरैयाकी तरह गोद में उठाकर पलंग के पास ले गया।

होश आने पर अमीना ने चोकी के अंदर से छुरा निकालकर जीजी के मुंह की ओर देखा, जीजी ने दालिया के मुंह की ओर देखा; और दालिया चुपचाप

मुस्कराता-हुआ दोनों की ओर देखता रहा। छुरी भी अपनी मियान में से जरा-सा मुंह निकालकर इस तमाशे को चमचमाकर हंसने लगी।⁵⁷

Tarjimada quyidagicha:

“Julikha yaqinroqqa borib, rojaning ohista va ma’noli kulimsirab turganini ko’rdi.

- Daliya! – deb qichqirdi birdan julikha. Amina xushidan ketib yeqildi.

Daliya sakrab o’rnidan turdi-da Aminani ohista ko’tarib, xuddi o’q tekkan qushdek eltib yotoqqa o’tkizdi. Qiz o’ziga keldi-da, xanjarni chiqarib opasiga qaradi. Julikha Daliyaga qaradi, yigit esa jilmayib, so’zsiz ularga boqardi. Qindan chiqqan xanjarning po’lat tig’i yaltirab, qolganday tuyulardi.”

2.2. “Panchatantra yohud besh muqaddas kitob” va “Kalilla va Dimna”da uslub masalasi

Yuqorida ta’kidlaganimizdek uslub tarjimajarayonidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ammo shunday holatlar borki unda uslubga umuman e’tibor qaratilmagan. Muallif uslubiga befarqlik bilan qaralgan. Biz bu kabi holatlarni bilvosita tarjima bo’lgan asarlarda kuzatishimiz mumkin bo’ladi. Oradagi qo’shimcha til sababli muallif uslubi bilan birga asarning o’zining uslubi ham yoqolib boraveradi. Ayniqsa oldingi davrlarda uslub masalasiga yengillik bilan qaralgan. Uslub tushunchasiga e’tibor qaratilmagan desak ham mubolag’a bo’lmaydi.

Misol uchun hind adabiyotining noyob durdonalarida biri hisoblangan, “Panchatantra” masalini olaylik, u ham o’zbek tiliga bilvosita tarjima qilingan asarlar sarasidan joy olgan. Ushbu adabiyot insonni yashashga o’rgatadi, ezgulikka chorlaydi. Asar juda qiziqarli va sarguzashtlarga boy. Uni o’qigan kitobxon albatta zavqlanadi shu bilan birga hind madaniyati haqida biroz tushunchaga ega bo’ladi. Ammo, uning asl nusxasi bilan qiyoslaydigan bo’lsak butunlay o’zgacha ruhdagi

⁵⁷दालिया.प-४०.

asarni ko‘ramiz. Bilvosita tarjima natijasida asliyatdagi uslub tamomila o‘zgarib ketgan desak ham bo‘ladi. “Panchatantra” asari Ibrohim G‘ofurov tomonidan Sirkinning rus tiliga ag‘dargan tarjimasi orqali o‘zbek tiliga o‘girilgan. Shu sababli, I.G‘ofurov tarjimasida ham aynan Sirkin tarjimasidagi xatoliklarni kuzatishimiz mumkin.

Lekin asl Purnabhadra nusxasining qurilishi, shakli, badiiy o‘ziga xosliklari tamomila o‘zgacha bir go‘zallikdir. Bunda uslub va usullar ham tamomila o‘zgacha. Unda hikoyatlardan hikoyatlar kelib chiqadi. Har bir hikoyat go‘zal va teran hikmatga ega bo‘lgan bayt bilan boshlanadi va shu bayt bilan tugallandi. “Panchatantra”ning noma’lum muallifi qoliplashning behad chiroyli uslubidan foydalanadi. Hikoyatlar ichida yana hikoyatlar keltiriladi. Hikoyatlarning o‘ziga xos qavatlari hosil bo‘ladi.

“Panchatantra” muqaddas besh kitob – ming yillar osha inson uchun o‘z qimmatini va ahamiyatini zarracha bo‘lsin yo‘qotgan emas. U hamon yangi, hamon dono, hamon kuchda. U fazilatlar kitobidir. Bir so‘z bilan aytganda, to‘g‘ri yashash to‘g‘ri ish yuritish san‘atini o‘rgatuvchi kitobdir. Asl nusxaning tarovatini hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Ammo, tillardan tillarga osha uning mazmuni ham uslubi ham o‘zgarib ketgan. Shu bilan birga “Panchatantra” asari nasriy ko‘rinishda yozilgan asar hisoblanadi. Ammo tarjima asarini o‘qiganimizda, erkinlik natijasida vujudga kelgan undagi ko‘plab she‘riy parchalarning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu albatta asarning uslubini o‘zgarishiga olib kelgan. Bundan tashqari ayrim gaplar qisqartirib ayrimlari esa kengaytirib yuborilgan. Misol tariqasida quyidagi parchani ko‘raylik: **दमनक बोला, “ लगता है, तुम केवल भोजन के लिए ही जीते हो ।⁵⁸**

Rus tilida esa u quyidagi ko‘rinishga ega:

Даманак ответил: «Неужели ты служишь повелителю из-за одной только пищи, не стремясь к отличию? Хорошо ведь говорится:

Чтоб помочь в беде всем друзьям своим,

⁵⁸अशोक कौशिक। पंचतंत्र। - नयी दिल्ली। २००३ - प।12

Чтоб нести бедствия всем врагам своим,

Повелителю служат мудрые.

А живот наполнять – каждому легко.

И еще:

Лишь тот действительно живет,

кто помогает жить другим.

Не служит разве птицам клюв,

чтоб тело пищей насыщать?

Когда живешь без состраданья ты в этом мире

К друзьям своим, или к учителю, или к сыну,

К тому, кто слаб, или к слуге, –

твоя жизнь бесплодна.

Так ворон, жертвыпоедая, весь век проводит.

Хоть радуется пес, когда разыщет кость,

лишь жилами и жиром

Покрытую слегка, где мяса даже нет,

не утолит он голод.

А лев, шакала невредимым отпустив,

слона убить стремится.

Все твари и в нужде желают получить

достойную награду.

К ногам хозяина собака ложится смирно,

Хвостом виляет и, раскрыв свою пасть,

ждет пищи.

Когда же кормишь ты слона,

то он долго смотрит

И лишь возьмет за еду после сотни ласок.

Легко наполнить ручеек,

мышонку лапки отягчить,

Легко насытит бедняка,

привыкшего к лишениям.

*Кто не может отличить вреда от пользы,
Кто законы древние исполнять не хочет,
Кто стремится лишь наестся до отвала,
Чем тот отличается от тупой скотины?*

*Или же: И быка, когда он тащит воз тяжелый, Тянет плуг с
усердием, поедает зелень,
Всем приносит пользу, чист и благороден,
Разве можно сравнивать с человеком низким?»⁵⁹*

Yuqoridagi misolimizdan ko'rsak bo'ladiki asardagi uslub mutlaqo o'zgarib ketgan. Nasriy uslubda yozilgan asar she'riy asarga aylangan. Bundan tashqari she'riy parcha asliyatda mutlaqo mavjud emas. Shunchaki asar qahramonining gapini isbotlash uchun bu she'riy jumladan foydalanilgan. Tarjimaga haddan tashqari erkin yondashilgan. Bu darajada bo'rttirish asarni go'zallashtirmaydi. Aksincha, uningshakli, uslubi, ruhiyatini yo'qolishiga olibkeladi. Endi esa uning o'zbek tiliga bilvosita o'girilgan tarjimasini ko'raylik:

- Naxotki sening qorindan boshqa tashvishing bo'lmasa? Naxot sen boshqalardan ajralib turishni istamaysan? Eshitmaganmisan:

*Og'ir chog'da do'stlarga yordam
Va g'animga berib talafot
Jig'ildon balosin yengaroq,
Shohga xizmat qiladi dono,*

Yohud yana:

*Ustozu xizmatkor, bemoru do'stga
Gar dilda bo'lmasa zarracha shafqat,
Bu yorug' dunyoda yashashing bekor,
Sarqit yegan qarg'adan battar⁶⁰.*

Ushbu parcha o'zbek tiliga bilvosita tarjima bo'lgan ko'rinishidandir. U ham asliyatdan ham tarjima asaridan farq qiladi. Nima bo'lganda ham eng asosiysi

⁵⁹ Сыркин А. Панчатантра. – Москва, 1930. – В-9

⁶⁰ G'ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2013. – B.13

asliyatdagi uslub umuman aks etmagan. Balki tarjimon asarni yanada go‘zallashtirib, uni bo‘rttirib yanada ta’sirli qilishni istagandir, ammo, asliyatdagi ruhiyatni tamoman yo‘qotib yuborgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek tarjimon ijodkor hisoblanadi u ham asarni o‘girayotgan tilida qayta yaratadi. shu bilan birga u asliyatdagi ruhiyatga uslubga o‘z ta’sirini o‘tkazmasligi kerak. Kitobxon asliyatdagi asarni mutoola qilganida qanday taassurotlarga ega bo‘lsa, tarjima asarni o‘qiganda ham aynan o‘sha taassurotlarni his eta olishi kerak. Bu esa tarjimondan katta mas’uliyatni va bilimni talab qiladi. Ayniqsa muallif uslubiga alohida e’tibor qaratishi va uni saqlab qolib, tarjimada aks ettirishi kerak bo‘ladi. “Panchatantra” asarining asl uslubi juda qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning o‘zbek tilidagi tarjimasi ham sarguzashtlarga boy va qiziqarli o‘girilgan. Ammo bir biridan farq qiladigan jihatlari talaygina.

Yana bir misolni ko‘raylik:

दक्षिण देश में महिलारोप्य नाम का एक नगर था।⁶¹

Endi esa Rus tilidagi tarjimasini ko‘raylik:

*Есть в южных странах город под названием Махиларопья, соперничающий с городом Пурандары, одаренный всеми достоинствами, лучшее сокровище земли, подобный вершине Кайласы*⁶².

Rus tiliga o‘girilgan tarjimada asl Purnabhadra nusxasining uslubi o‘zgarib ketgan. Tarjimadagi “*соперничающий с городом Пурандары, одаренный всеми достоинствами, лучшее сокровище земли, подобный вершине Кайласы*” mana shu jumla asliyatda mavjud emas. Erkin tarjima oqibatida mana shunday holat yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Asl Purnabhadra nusxasining qurilishi, shakli, badiiy o‘ziga xosliklari tamomila o‘zgacha bir go‘zallikdir. Bunda uslub va usullar ham tamomila o‘zgacha. Unda hikoyatlardan hikoyatlar kelib chiqadi. Har bir hikoyat go‘zal va teran hikmatga ega bo‘lgan bayt bilan boshlanadi va shu bayt bilan tugallanadi.

⁶¹अशोक कौशिक. पंचतंत्र.-नयी दिल्ली.२००३- प.9

⁶²Сыркин А. Панчатантра. – Москва, 1930.–В.5

“Panchatantra”ning noma’lum muallifi qoliplashning behad chiroyli usulidan foydalanadi. Hikoyatlar ichida yana hikoyatlar keltiriladi. Hikoyatlarning o‘ziga xos qavatlari hosil bo‘ladi. Tarjimada esa uning uslubi o‘zgarib ketganini ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, bilvosita tarjima ta’sirida asar o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

*Janub mamlakatida Purandara shahri bilan raqobat qiluvchi obod hamda gavjum Maxiloropya shahri mavjud*⁶³.

Bu yerda “*Purandara shahri bilan raqobat qiluvchi obod hamda gavjum*” jumla qo‘shilgan. Asliyatda esa mavjud emas. Ko‘rib guvohi bo‘lyapmizki, tarjimadagi bir xato bilvosita tarjima oqibatida ikki barobar bo‘lib o‘tmoqda. Yuqorida ta’kidlaganimizdek asarning go‘zalligini va ruhiyatini ifodalovchi eng muhim jihatlaridan biri bu uning uslubidir. Bilvosita tarjima esa muallif va asar uslubini tamomila o‘zgartirib yubormoqda. Asardagi juda ko‘p qismlarda nasriy asarni she’riy asarga aylantirib qo‘yilgan.

Har bir bob boshlanganida u haqida qisqacha ma’lumot beriladi va hikoya ichidagi hikoya haqida bayon qilinadi. Quyidagi misolni ko‘raylik:

अब यह काकोलूकीय नामक तृतीय तन्त्र आरम्भ होता है जिस का प्रारंभ इस प्रकार है- जो पहले कभी विरोधी रह चुका हो और अब मित्र बनकर आया हो उस पर विश्वास नहीं करना चाहिये⁶⁴।

Uninga rus tiliga o‘girilgan tarjimasi esa quyidagicha:

Здесь начинается третья книга под названием «О воронах и совах», повествующая о мире, сражении и других делах. Вот ее первый стих:

Тому, кто прежде враждовал с тобою,

А ныне другом стал, – не доверяйся.

Гляди, как принесли огонь вороны

⁶³G‘ofurov I. Panchatantra yohud muqaddas besh kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B.10

⁶⁴अशोक कौशिक. पंचतंत्र.-नयी दिल्ली.२००३- प.82

*И сов сожгли в их собственной пещере*⁶⁵.

Buyerda ham uslub o'zgarib ketgan. Asarning tarjima nusxasi asliyat bilan mutlaqo farq qilishini ko'rishimiz mumkin. She'riy uslubda yozilmagan asar she'riy uslubdagi boshqa bir asarga aylangan. Asliyatdagi gapning tarjimasi umuman tarjima qilinmagan. Bu yerda faqatgina ijodiy yondoshib erkin tarjima qilinga. Buning natijasida o'zbek tilida ham aynan shu holat takrorlangan:

“Qarg‘alar va boyqushlar” degan kitob shu yerda boshlanadi. Unda tinchlik, urush va boshqa amallar to‘g‘risida hikoya qilinadi. Uning birinchi bayti bunday:

Avvalda kim sen bilan yovlashgan bo‘lsa,

Do‘st bo‘laman desa endi – unga ishonma.

Aldab olov keltirib, qarg‘alar g‘addor

Boyqushlarni yoqdilar ular g‘orida.

Unda yana rus tilidagi xato takrorlanmoqda. Ammo, tarjimonning mahoratiga tan bermay ilojimiz yo‘q, sababi she‘riy asarlarni har kim ham bu darajada tarjima qila olmaydi. Buning uchun ham yetarlicha iste‘dod talab qilinadi. Lekin nima bo‘lganda ham, asar uslubiga putr yetkazishga hech kimning haqqi yo‘q.

Bulardan tashqari “Panchatantra” asari tarjimalari natijasida vujudga kelgan “Kalilla va Dimna” asari ham asliyatdan mutlaqo farq qiladi. Undagi hikoyalar nomi ham butunlay o'zgarib ketgan. O'zbek tiliga o'girilgan tarjimalari ichida eng mukammali va ommaga taqdim qilinayotgani bu Suyuma G'aniyeva tonidan tarjima qilingan nusxasidir. Unda ham tarjimon ko'plab o'zgartirishlar kiritgan. Shu bilan birga undagi behayo jummalarni ham qisqartirib, olib tashlagan. Undagi hikoyalar quyidagicha nomlanadi:

- *Barzuya hakim haqida bob*
- *Sher va ho‘kiz bobi*
- *Dimna ishining tekshirilishi*
- *Chinkabutar, qarg‘a, sichqon, toshbaqa va ohu bobi*
- *Boyqush va qarg‘a bobi*

⁶⁵Сыркин А. Панчатантра – Москва, 1930. – С. 133

- *Maymun va toshbaqa bobi*
- *Zohid va latcha bobi*
- *Mushuk va kalamush bobi*
- *Shahzoda va qubbara qush*
- *Sher va shag‘ol bobi*
- *Ona sher, shag‘ol va ovchi bobi*
- *Zohid va mehmon bobi*
- *Bilor va brahmanlar bobi*
- *Sayyoh va zargar bobi*
- *Shahzoda va o‘rtoqlari haqidagi bob*

Yuqorida asardagi hikoyalar nomi keltirildi. Asl nusxada esa beshta bob mavjud bo‘lib ularning har biri turli hikoyalarni o‘z ichiga oladi. “Panchatantra”ning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari ham huddi shunday. Ularni biz yuqoridagi boblarda keltirib o‘tgan edik.

“Panchatantra yohud besh muqaddas kitob” tarjimasi bilan “Kalilla va Dimna” asari va rus tilidagi “Панчатантра” tarjimalarining yana bir farqi shundaki, “Kalilla va Dimna” tarjimasida izohli lug‘at berilmagan. “Panchatantra”ning Sirkin va I.G‘ofurov tarjimalarida noma‘lum so‘zlar uchun izohli lug‘at berilgan.

2-bob yuzasida xulosa

Asarni go‘zallashtiruvchi uning milliyligi, madaniyati va shu kabilarni ifoda etuvchi hislati bu uning uslubi hisoblanadi. Bundan tashqari uning aynan uslubi orqali kitob aynan kimga tegishli ekanini bilib olishimiz mumkin. Yuqorida aytib o‘tganimizdek har bir muallif va tarjimon o‘z uslubiga ega. Qaysidir yozuvchi jumalarni uzun uzun qilib badiiy ifodalaydi, kimdir esa aksincha, qisqa-qisqa jumalar bilan noyob asar yaratadi. Tarjimonning ham o‘z tarjima qilish uslubi bo‘ladi va u albatta u tarjima qilgan asarda o‘z aksini topadi. Albatta bu jarayon chegaradan chiqmagan holda yuz bersa nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

Yuqoridagi misollar yordamida uslub o'zgarishi va u asarni butunlay boshqa asarga aylantirib yuborganining guvohi bo'ldik. Hozirgi kunda bu kabi muammolar oldingi davrlarga nisbatan anchagina kamaygan desam xato bo'lmaydi. Chunki, hozirgi mustaqil zamonamizda tarjima sohasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bilvosita emas imkon bor qadar bevosita tarjimalar amalga oshirilmoqda. Bevosita tarjimini amalga oshirishning iloji bo'lmagan taqdirda, tarjimalar ichida eng mukammali orqali tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ham asliyatdagi asar tili xalqining madaniyati, tarixi, milliyligi, an'analari haqida ozgina bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'lgan tarjimonning tarjimasi yanada go'zal chiqadi. Shunda tarjimadagi kamchiliklar ham ozgina kamayadi.

XULOSA

“Panchatantra” – ko‘hna Hindistonning eng qadimiy va durdona asarlaridan bo‘lib, bu nodir qo‘llanma insoniy tuyg‘ular tarannumiga bag‘ishlanadi. Kitob insonni yashashga o‘rgatadi, shuningdek, oliyjanoblik, yaxshi xulqlarni targ‘ib qiladi.

1. “Panchatantra”ning badiiy o‘ziga xosliklari tamomila o‘zgacha bir go‘zallikdir. Bunda uslub va usullar ham tamomila o‘zgacha. Unda hikoyatlardan hikoyatlar kelib chiqadi. Har bir hikoyat go‘zal va teran hikmatga ega bo‘lgan bayt bilan tugallanadi.

2. Kitobni o‘qigan kitobxon borki, hayotga boshqacha nazar tashlaydi, insoniy barkamollik sari intiladi. Ushbu asar boshqa tillarga bilvosita tarjima asosida tarjima qilingan asarlardan biridir.

Bilvosita tarjima – bir tildagi asarni ikkinchi tilga vositachi til orqali tarjima qilish. Bilvosita tarjimaning ikki shakli mavjud:

- muayyan asarni uning boshqa tildagi tarjimasi orqali tarjima qilish;
- til bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan taglama asosida o‘girish.

3. Bilvosita tarjimaning yaqqol ko‘rinib turgan ikki kamchiligi mavjud: birinchisi – har qanday asar o‘zi tarjima qilingan til xususiyatlarini ma’lum darajada o‘ziga singdiradi, tarjima bo‘lgan adabiy muhitga moslashadi; ikkinchisi – vositachi tildan o‘girgan tarjimon muallif qolib, tarjimon talqiniga ergashadi, u sodir etgan xatolarni aynan takrorlaydi. Har qanday tarjima muayyan darajadagi xatolardan xoli bo‘lmasligi haqidagi haqiqatdan kelib chiqsak, uning xatolari salafiniki bilan qo‘shilib, ular ikki baravarga ko‘payadi.

4. Har bir narsaning o‘z kamchiliklari va afzalliklari mavjud bo‘lganidek, bilvosita tarjima ham shunday ikki jihatga ega. Mashhur hind masallaridan hisoblangan “Panchatantra” asari ham bilvosita tarjima bo‘lganligi sababli ayrim afzallik kamchiliklarga ega.

5. “Panchatantra” VI asrda suroniy tiliga tarjima qilingan. Shundan so‘ng arab va pahlaviy tillariga o‘girilgan. Shu tariqa u tillardan tillarga, mamlakatlardan mamlakatlarga osha, o‘zining uzoq sharaflari yo‘llarini bosib o‘tgan. “Panchatantra”ning arabchaga ilk tarjimasini “Kalilla va Dimna” deb atalgan. Vaqt o‘tgan sari, tillardan tillarga ko‘chgan sari “Panchatantra”ning shakli ham, mazmuni ham o‘zgarib, uning yangidan yangi variantlari yaratilavergan. Har bir tarjimon unga o‘zidan ko‘p naesalar qo‘shgan. Shu tariqa asl nusxalar bilan boshqa tillarga turli davrlarda qilingan tarjimalar o‘rtasida juda katta farq yuzaga kelgan. 1972-yilda rus hindshunos olimi A.Sirkin tomonidan “Panchatantra” rus tiliga o‘girilgan. O‘zbek adabiyotiga “Panchatantra” birinchi bor o‘zining arabcha varianti “Kalilla va Dimna” asarining tarjimasini orqali kirib kelgan. Panchatantraning o‘zi esa birinchi bor 1993-yilda Ibrohim G‘ofurov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Uning mukammal varianti esa 2013-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan va kitobxonlarga taqdim etilgan.

6. Bilvosita tarjimadan butunlay voz kechib bo‘lmasligini ham bilamiz. Albatta hech bir tarjimon butun dunyo tillarini mukammal bila olmaydi. Ammo, turli mohir adiblar tomonidan yaratilgan noyob asarlar talaygina. Ularni dunyoga tanitish uchun esa tarjima qilish kerak bo‘ladi. Shu sababli ayrim asarlar bilvosita ayrimlari esa bevosita tarjima bo‘ladi. Har kim ham tarjimon bo‘lishi mumkin, ammo, badiiy asar tarjimasiga har bir tarjimon ham kirishavermaydi. Chunki, badiiy asar tarjimoniga qo‘yiladigan talablar juda katta. Ayniqsa eng murakkab tarjimalardan biri bu she‘riy asarlar tarjimasini hisoblanadi.

7. Tarjimonning asosiy maqsadi asarni o‘girayotgan tilida qayta yaratishdan iborat. Shu bilan birga asar huddi aslyat kabi kitobxonda taassurot qoldirishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa tarjimon ham ijodkor bo‘lishi talab etiladi. Bu esa juda murakkab jarayon va tarjimonidan keragidan ortiq iste‘dodni talab etadi. Shu sababli ham badiiy asarlar tarjimonlari oramizda ko‘p emas va ular butun dunyo tillarini mukammal bila olmaydilar. Shuning uchun ham ayrim asarlarni bevosita emas bilvosita o‘girishga to‘g‘ri keladi.

8. “Panchatantra” asarining hozirgi kundagi bizda mavjud tarjimalari asliyatdan butunlay farq qiladi. Ayniqsa yozuvchi va asar uslubiga jiddiy e’tibor qaratilmagan va ko‘plab kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan.

9. Asarni o‘qigan kitobxon albatta zavqlanadi shu bilan birga hind madaniyati haqida biroz tushunchaga ega bo‘ladi. Ammo, uning asl nusxasi bilan qiyoslaydigan bo‘lsak butunlay o‘zgacha ruhdagi asarni ko‘ramiz. Bilvosita tarjima natijasida asliyatdagi uslub tamomila o‘zgarib ketgan desak ham bo‘ladi.

10. “Panchatantra” asari Ibrohim G‘ofurov tomonidan Sirkinning rus tiliga ag‘dargan tarjimasi orqali o‘zbek tiliga o‘girilgan. Shu sababli, I.G‘ofurov tarjimasida ham aynan Sirkin tarjimasidagi kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari

1. Karimov I. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston san’ati nashriyoti, 1998

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017

O‘quv qo‘llanmalar

1. Ochilov E. Tarjima nazariyasi (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent. 2014

2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning asosiy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent. 2014

3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2011-yil

Ilmiy monografiya, maqolalar va boshqa asarlar

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

2. Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.

3. Muhibova U. Hind adabiyoti. – Toshkent: 2008

4. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari, -Toshkent 2005.

5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi – 1978

6. Salomov G‘. Tarjima masalalarini kompleks o‘rganish masalasi.

7. Ochilov E. Tarjimashunoslik termenlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: ToshDSHI, 2014

8. G‘iyosov N. Bilvosita tarjima va milliy tiynat // Tarjima muammolari (Maqolalar to‘plami). 3-kitob. – Toshkent, 1991

Rus tilidagi adabiyotlar

1. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Высшая школа, 1983

2. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистический очерк). Издание 3-е, Москва: Высшая школа, 1968

3. Белинский В, Собр. соч., в трех томах, т. II, Москва. 1948
4. Виноградов В., Проблема авторства и теория стилей, М., ГИХЛ, 1961
5. Томашевский В. Язык и стил. Л., 1952

Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

1. Dosbayeva N.T. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011

Manbalar

O‘zbek tilidagi manbalar

1. G‘ofurov I. Panchatantra yohud besh muqaddas kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013
2. G‘aniyeva S. Kalilla va Dimna. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016

Hindiy tilidagi manbalar

1. अशोककौशिक. पंचतंत्र.-नयीदिल्ली.२००३
2. दालिया.

Rus tilidagi manbalaar

1. Сыркин А. Панчатантра. – Москва, 1930

Foydalanilgan internet sahifalar

1. <https://www.trt.net>
2. <https://uz.wikipedia>